

## YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 188 (1249), 2024-yil 16-sentabr, dushanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## SAMARALI MUZOKARALARDA KO‘P QIRRALI O‘ZBEKISTON – GERMANIYA MUNOSABATLARINI YANADA RIVOJLANTIRISHGA ALOHIDA E‘TIBOR QARATILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Germaniya Federativ Respublikasi Federal Kansleri Olaf Shols 15-sentabr kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.



Germaniya — O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqidagi yetakchi iqtisodiy hamkorlaridan biri.

So‘nggi yillarda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi aloqalar izchil rivojlanmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil yanvar oyida Germaniyaga rasmiy tashrif bilan borishi va o‘sha yilning may oyida Germaniya Federativ Respublikasi Federal Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerning O‘zbekistonga kelishi ikki tomonlama hamkorlikni yangi bosqichda rivojlantirishda muhim qadam bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari 2023-yilning may va sentabr oylarida ikki marta rasmiy tashrif bilan Germaniyada bo‘lib, Federal Prezident Frank-Valter Shtaynmayer, Kansler Olaf Shols va yetakchi nemis kompaniyalari rahbarlari bilan muzokaralar o‘tkazdi, shuningdek, “Markaziy Osiyo — Germaniya” formatidagi birinchi sammitda ishtirok etdi.

Hamkorlik aloqalarining mustahkamlanishi natijasida tovar ayirboshlash hajmi keyingi yillarda ancha oshdi. Germaniyaga xizmatlar, to‘qimachilik, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar eksport qilinayotgan bo‘lsa, o‘z navbatida, nemis diyoridan mexanik asbob-uskunalar, transport vositalari va ular uchun ehtiyot qismlar, farmatsevtika hamda kimyo mahsulotlari va xizmatlarini import qilyapmiz.

Keyingi yillarda mehnat migratsiyasi sohasidagi aloqalar Germaniya bilan

hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishiga aylandi. Shuningdek, sog‘liqni saqlash sohasidagi keng ko‘lamli va o‘zaro manfaatli aloqalar ham bugun izchil rivojlanmoqda.

Germaniya Kansleri Olaf Sholsning yurtimizga tashrifi keng ko‘lamli hamkorlik aloqalarining yanada rivojlanishiga turki berishi kutilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Germaniya Federal Kansleri Olaf Sholsni Registon maydonida kutib oldi.

Mamlakatimizning asosiy timsollaridan biri, ajdodlarimiz bunyodkorlik salohiyatining ifodasi — dunyoga mashhur Registon maydoni UNESCOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Ansamblda kiruvchi Mirzo Ulug‘bek, Sherdor va Tillakori madrasalari o‘zining salobati, boy tarixi va betakror arxitekturasi bilan barchada chuqur taassurot qoldiradi.

Oliy martabali mehmonga Sharq me‘morchiligining ushbu durdonasi qurilishiga oid tarixiy ma‘lumotlar, yechimlar va bezaklarning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, bu maskan bilan bog‘liq muhim voqealar va shaxslar, o‘zbek xalqining madaniy merosi haqida ma‘lumot berildi.

Suhbat davomida jahon sivilizatsiyasining qadimiy beshiklaridan biri sifatida haqli ravishda e‘tirof etilgan Samarqand shahri bugungi kunda ishbilarmonlik va sayyohlik markaziga aylanib borayotgani ta‘kidlandi.

Shundan so‘ng Samarqand shahridagi Kongress markazida Germaniya Federal Kansleri Olaf Sholsni rasmiy kutib olish marosimi bo‘ldi.

Kongress markazi oldidagi maydonda faxriy qorovul saf tordidi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy martabali mehmonni shohsupaga taklif etdi.

Harbiy orkestr ikki mamlakat madhiyalarini ijro etdi. Yetakchilar faxriy qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a‘zolarini qutladilar.

So‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Germaniya Federal Kansleri Olaf Sholsning tor doirada va delegatsiyalar ishtirokidagi muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari Federal Kanslerning O‘zbekistonga tashrifi tarixiy ahamiyatga ega ekanini alohida ta‘kidladi.

— Buni ko‘p qirrali O‘zbekiston — Germaniya munosabatlarini yanada rivojlantirishga alohida e‘tiboringiz va Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlarni qo‘llab-quvvatlashingizning dalolati sifatida qabul qilamiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari mehmonlarni Germaniya Federativ Respublikasi tashkil etilganing 75 yilligi va yaqinlashib

kelayotgan Germaniya birligi kuni bilan samimiy muborakbod etdi.

Muzokaralar davomida ko‘p qirrali O‘zbekiston — Germaniya munosabatlarini yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘tgan yili Berlinda o‘tkazilgan oliy darajadagi uchrashuvlar ikki mamlakat o‘rtasidagi amaliy hamkorlikni rivojlantirishga jiddiy turtki bergani ta‘kidlandi.

Barcha darajalardagi aloqalar faollashdi. O‘tgan yili tovar ayirboshlash hajmi 1 milliard yevrodan oshdi. Germaniya biznesi bilan hamkorlik kengaymoqda — yil boshidan buyon mamlakatimiz iqtisodiyotiga Germaniya kompaniyalarining 800 million yevrolik investitsiyalari kiritildi.

Iyun oyida Toshkentda O‘zbekiston — Germaniya Ishbilarmonlar kengashining sakkizinchi yig‘ilishi muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

“KfW” banki va Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyatining moliyaviy-texnik ko‘mak loyihalariga yuqori baho berildi.

O‘tgan yili Berlin shahridagi Yangi muzeyda O‘zbekiston madaniy merosi ko‘rgazmasining o‘tkazilishi madaniy sohada muhim voqea bo‘lgani, unga Germaniya poytaxtining yarim milliondan ortiq aholisi va mehmonlari tashrif buyurgani ta‘kidlandi.

Shu yil yozda Samarqand shahrida Ibn Sino va Genrix Shipperges nomidagi Tibbiyot fanlari oliy maktabi ochilgani ham mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tomonlar parlamentlar, hukumatlar, tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasidagi faol aloqalarni davom ettirish tarafdori ekanliklarini bildirdilar.

Tashqi siyosat idoralarga O‘zbekiston — Germaniya munosabatlari darajasini oshirish masalasini ko‘rib chiqish, xalqaro va mintaqaviy muammolar, jumladan, Afg‘onistondagi vaziyat yuzasidan muntazam maslahatlashuvlar o‘tkazish topshirildi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, EXHT, Yevropa Ittifoqi institutlari va boshqa ko‘p tomonlama tuzilmalar doirasidagi faol hamkorlik davom ettiriladi.

Bugungi sammitga Sanoat va texnologiyalar bo‘yicha strategik sheriklik dasturi tayyorlangani qayd etildi. Germaniyaning yetakchi kompaniya va banklari bilan umumiy qiymati qariyb 9 milliard yevro bo‘lgan hamkorlik loyihalari ishlab chiqilmoqda.

Ular “yashil” energetika, kimyo sanoati, o‘ta muhim xomashyoni o‘zlashtirish, mashinasozlik, to‘qimachilik sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish va boshqa ko‘plab yo‘nalishlarni qamrab oladi.

“Siemens Energy” kompaniyasi bilan mamlakatimiz hududlarida bug‘-gaz elektr stansiyalarini qurish, “Linde Group” kompaniyasi bilan “metanol

oroli” barpo etish va “yashil” ammiak ishlab chiqarish, “KfW Ipx-Bank” ishtirokida yirik mis konini o‘zlashtirish, “Giga Fiber” bilan mis qazib olish va kabel mahsulotlarini ishlab chiqarish, “AMK Global” bilan uglerod tolasi, “Guesscon” bilan qora qurum hamda vodorod ishlab chiqarish loyihalari eng muhim loyihalar sifatida qayd etildi.

Nasos tizimlarini mahalliyashtirish, qayta tiklanuvchi energetika, tibbiy buyumlar ishlab chiqarish, logistika markazlarini tashkil etish bo‘yicha bir qator yangi loyihalar mavjud.

Ushbu loyihalarni tezlashtirish va qo‘llab-quvvatlash, investitsiyalarni rag‘batlantirishning samarali vositalarini joriy etishga kelishildi.

Tashrif davomida o‘ta muhim xomashyo resurslari va iqlim o‘zgarishi sohasidagi hamkorlik bo‘yicha imzolangan bitimlarning ahamiyati ta‘kidlandi.

O‘zbekiston Germaniya hukumati tashabbusi bilan tuzilgan Iqlim klubida ishtirok etishdan manfaatdor ekanini ta‘kidlandi.

Transport va logistika, samarali quruqlik va havo yo‘laklarini rivojlantirish, transport xarajatlarini kamaytirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘zbekiston rahbari “Lufthansa” aviakompaniyasining mamlakatimizga to‘g‘ridan to‘g‘ri parvozlarini qayta yo‘lga qo‘yish masalasini ko‘rib chiqishni taklif etdi.

O‘zbekiston va Germaniya hududlari o‘rtasidagi sheriklik munosabatlarini kengaytirish muhimligi qayd etildi. Yil boshidan buyon Germaniyaning ikkita federal o‘lkasi vakillari mamlakatimizga tashrif buyurdi. Yil oxirigacha Berlin, Bavariya va Tyuringiya delegatsiyalarining tashrifi kutilmoqda.

Tashrif davomida mehnat migratsiyasi sohasida shaffof va tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan bitim imzolanganini mamnuniyat bilan ta‘kidlandi.

Mas‘ul idoralar darajasida talab yuqori bo‘lgan o‘zbekistonlik mutaxassislarni tayyorlash va Germaniyaga yuborish bo‘yicha amaliy hamkorlik “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish taklif etildi.

Germaniyaning dual ta‘lim tizimini O‘zbekiston hududlarida keng joriy etishga qiziqish bildirildi. Yetakchi universitetlar o‘rtasida ta‘lim va ilmiy aloqalarni rivojlantirish uchun ikki mamlakat oliy o‘quv yurtlari forumini tashkil etish tashabbusi ilgari surildi.

O‘zbekiston tomoni qo‘shma dasturlarni amalga oshirish, Germaniya oliy ta‘lim muassasalarining fakultetlari va filiallarini ochish uchun barcha sharoitlarni yaratishga tayyorligini bildirdi.

Tashrif doirasida Boshqaruv kadrlarini tayyorlash qo‘shma maktabi ishga tushirilishi qayd etildi.

O‘zbekiston Prezidenti yoshlarimizning nemis tiliga qiziqishi yuqori ekanini, bu tilni 300 mingga yaqin yigit-qiz o‘rganayotganini ta‘kidladi. Yaqinda andijonlik maktab o‘quvchisi Rayyona Ibrohimova nemis tili bo‘yicha Jahon olimpiadasida g‘olib bo‘lgani bunga yorqin misoldir.

Germaniya tomoni mamlakatimiz hududlarida til o‘rganish va o‘qituvchilar tayyorlash dasturlarini kengaytirishga ko‘maklashishga tayyorligini bildirdi.

Madaniy hamkorlik bo‘yicha aralash komissiya faoliyatini qayta tiklash taklif etildi. Uchrashuvda qabul qilingan qarorlar va imzolangan bitimlarni amalga oshirish bo‘yicha qo‘shma “yo‘l xaritasi”ni tayyorlash va qabul qilishga kelishib olindi.

Samarali muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Germaniya Federativ Respublikasi Federal Kansleri Olaf Shols Qo‘shma deklaratsiyani qabul qildilar.

Umuman, rasmiy tashrif doirasida 8 ta ikki tomonlama hujjat imzolandi, shu jumladan:

— Migratsiya va mobillik sohasida har tomonlama sheriklik to‘g‘risida hukumatlararo bitim;

— Veterinariya va chorvachilik sohasida hamkorlik to‘g‘risida hukumatlararo deklaratsiya;

— “Yashil Markaziy Osiyo” tashabbusi doirasida suv resurslaridan barqaror foydalanish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida hukumatlararo deklaratsiya;

— O‘ta muhim mineral sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida qo‘shma deklaratsiya;

— Transport sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Parij bitimi doirasida iqlim o‘zgarishi sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida memorandum.

Bundan tashqari, 2024-2026-yillarga mo‘ljallangan Texnologik sheriklik va sanoat kooperatsiyasi dasturi qabul qilindi, shuningdek, O‘zbekiston va Germaniyaning yetakchi korxonalar darajasida bir qator bitim va shartnomalar tuzildi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekistonga tashrif chog‘ida Kansler Olaf Sholsga hamrohlik qilayotgan va 16-sentabr kuni Samarqandda bo‘lib o‘tadigan Germaniya ishbilarmon doiralari bilan uchrashuvda qatnashadigan ushbu mamlakat yetakchi investitsiya, sanoat va savdo kompaniyalari vakillarini qutladi.

Germaniya Federativ Respublikasi Federal Kansleri Olaf Sholsning mamlakatimizga rasmiy tashrifi davom etmoqda.

Ziyodulla JONIBEKOV,  
G‘olib HASANOV,  
O‘ZA maxsus muxbirlari

## GERMANIYA VA O‘ZBEKISTON O‘RTASIDAGI ALOQALAR IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLAR TARIXIDAGI YUKSAK CHO‘QQIGA YETDI

GFR Federal Kansleri Olaf Shols tashrifi arafasida Germaniyaning O‘zbekistondagi yangi tayinlangan elchisi Manfred Huterer “Dunyo” AA uchun intervyu berdi.

— Janob elchi, faoliyatingizni boshlaganingizga ko‘p vaqt bo‘lmadi va ayni shu pallada Germaniya Kansleri Olaf Sholsning O‘zbekistonga uzoq kutilgan tarixiy tashrifi amalga oshirildi. Shu o‘rinda kun tartibi haqida to‘xtalsak. Bundan tashqari, ikki tomonlama aloqalarimizning bugungi holati haqida fikrlaringiz qanday, qaysi yo‘nalishlarni ustuvor deb bilasiz?

— Darhaqiqat, ikki davlat hamkorligida yangi uflarni ocha oladigan ushbu tashrif faoliyatining ilk oylarida amalga oshirilayotganidan juda xursandman. Germaniya Kansleri Olaf Sholsning O‘zbekistonga tashrifi uning Markaziy Osiyo davlatlariga bo‘lgan birinchi safari hisoblanadi va shubhasiz, bu tashrif muhim ahamiyatga ega.

Davomi 2-betda

## UMUMIY FAROVONLIK VA TARAQQIYOT YO‘LIDAGI O‘ZARO MANFAATLI HAMKORLIK

Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Germaniya Federal Kansleri Olaf Shols 15-16-sentabr kunlari rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonda bo‘lib turibdi. O‘zbekiston mustaqillikka erishib, ikki mamlakat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganidan buyon Germaniya xalqaro maydondagi eng ishonchli va strategik muhim hamkorlardan biri bo‘lib kelmoqda.

Oliy darajadagi muloqotning faollashuvi 2019-yil yanvar oyida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Germaniyaga ilk rasmiy tashrifi bilan boshlangan. O‘sha yilning may oyida Germaniya Federativ Respublikasi Federal Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer javob tashrifi bilan O‘zbekistonga keldi. Aytish joizki, tashriflar ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga kuchli turtki

berdi. Ushbu oliy darajadagi uchrashuvlar chog‘ida erishilgan kelishuvlar, shuningdek, global va mintaqaviy tuzilmalar doirasidagi o‘zaro hamkorlik masalalari 2021-yil mart oyida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Germaniya Federal Kansleri Angela Merkelning onlayn-sammitida muhokama qilindi.

Davomi 2-betda

## ISLOHOT ODIMLARI

## JIZZAX VILOYATI: ULUG‘VOR YUKSALISHLAR o‘g‘ushida

Bir vaqtlar faqat qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan va xomashyo bazasi hisoblangan Jizzax viloyati bugun har tomonlama rivojlanayotgan hududga aylanmoqda, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Uzoq o‘tmishda emas, yaqin-yaqin ham Jizzaxda paxtani qayta ishlash, akkumulyator va plastmassa zavodlaridan tashqari sanoat korxonalarini deyarli yo‘q edi. Shu sababli viloyat budjeti ham, aholi daromadi ham o‘ta past darajada bo‘lib qolayotgandi. Buni 2017-yili viloyat budgetining 40 foizdan ziyod xarajatlari subvensiya hisobidan qoplanishidan ham bilsa bo‘ladi. Ushbu yillarda viloyatdagi 11 ta tuman va shaharning mahalliy budjetida subvensiya ulushi 52-75 foizni tashkil etgan.

Mamlakatimizda yangi O‘zbekiston davri boshlangach, boshqa hududlar qatori Jizzax viloyatida ham keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Avvalto, viloyatda ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi

va xizmat ko‘rsatish sohalari jadal davri boshlangach, boshqa hududlar qatori Jizzax viloyatida ham keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Avvalto, viloyatda ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi

Davomi 4-betda



# UMUMIY FAROVONLIK VA TARAQQIYOT YO'LIDAGI O'ZARO MANFAATLI HAMKORLIK

## Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari 2023-yil may va sentyabr oylarida ikki marta rasmiy tashrif bilan Germaniyada bo'lib, Federal Prezident Frank-Valter Shtaynmayer, Kansler Olaf Shols va yetakchi nemis kompaniyalari rahbarlari bilan muzokaralar o'tkazdi, shuningdek, "Markaziy Osiyo — Germaniya" formatidagi birinchi sammitda ishtirok etdi.

Oliy darajadagi munosabatlarning jadallashuvi va erishilgan kelishuvlarning yuqori sur'atlarda o'sib borishi ikki tomonlama kun tartibining izchil va mazmunli kengayishini ta'minladi, bu esa bosqichma-bosqich strategik xususiyat kasb etayotir.

Bugungi kunda Germaniya O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan ko'p qirrali va uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirishdagi asosiy hamkorlaridan biriga aylangan. Xususan, rasmiy Berlin 2007 va 2019-yillarda e'lon qilingan Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo mintaqasidagi strategiyalarini ishlab chiqish va qabul qilishda faol ishtirokchilardan biri bo'ldi.

Shu bilan birga, O'zbekiston va Germaniya ko'p tomonlama formatlarda — BMT, YXHT va boshqa tuzilmalar doirasida global va mintaqaviy kun tartibidagi masalalar bo'yicha ham samarali hamkorlik qilmogda. Rasmiy Toshkent va Berlinning ko'plab masalalar, jumladan, terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, gijohvandlikka qarshi kurashish, shuningdek, Afg'onistondagi vaziyatni tartibga solish bo'yicha pozitsiyalari bir-biriga mos keladi yoki yaqin.

Ikki davlat hukumatlari o'rtasida turli shakllarda o'zaro hamkorlik o'rnatilgan. Har tomonlama sheriklik kun tartibini rivojlantirish, uni yangi tashabbuslar bilan boyitishda parlamentlar aloqalar muhim o'rin tutadi. Mamlakatlarimiz parlament a'zolari muntazam tashriflarni amalga oshirmogda. 2019-yil yanvar oyida Berlin shahrida Oliy Majlisning Bundestag bilan hamkorlik bo'yicha parlamentlar guruhi va "Germaniya — Markaziy Osiyo" parlament guruhi o'rtasida o'zaro Anglashuv memorandumini imzolangan edi.

Ikki davlat tashqi siyosat idoralari o'rtasidagi hamkorlik konstruktiv xarakter kasb etmogda. Ikki va ko'p tomonlama kun tartibining dolzarb masalalari bo'yicha muntazam siyosiy maslahatlashuvlar o'tkazilmogda. 2022-yil oktabr-noyabr oylarida Germaniya tashqi ishlar vaziri Annalena Berбок O'zbekistonga tashrif buyurdi, u Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilindi, respublika vazirlik va idoralarda uchrashuvlar o'tkazdi, shuningdek, Samarqand shahrida bo'ldi.



Germaniya O'zbekistonning eng yirik investitsiyaviy va savdo hamkorlari o'ntaligiga kiradi. O'zbekiston bozorida "MAN", "Claas", "Knauf", "GP Papenburg AG", "Deutsche Kabel", "Siemens Energy", "Linde", "Henkel" va boshqa yetakchi kompaniyalar muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayapti. Germaniya investitsiyalari O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari — energetika, tog'-kon va kimyo sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi, transport va boshqa yo'nalishlarda o'sib bormogda.

Umuman olganda, bugungi kunga qadar mamlakatimizda nemis investitsiyasi ishtirokida 221 ta korxonatashkil etilgan va 31 ta Germaniya kompaniyalari vakolatxonalarini akkreditatsiyadan o'tgan.

Savdo-iqtisodiy sohadagi o'zaro aloqalarning muhim mexanizmi Savdo va investitsiyalar bo'yicha hukumatlararo ishchi guruhi bo'lib, uning muntazam uchrashuvlari iqtisodiy sheriklikni kengaytirishga xizmat qilmogda.

2015-yilda tashkil etilgan va ikki mamlakat yirik kompaniyalarini birlashtirgan O'zbekiston — Germaniya ishbilanmonlar kengashi nemis ishbilanmon doiralari va O'zbekiston hukumati o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri va ochiq muloqot uchun eng muhim platformaga aylandi. Kengash o'ziga xos xususiyatga ega, chunki u O'zbekistondagi yagona G2B platformasi hisoblanadi.

"Gunter Papenburg AG" kompaniyasi direktorlar kengashi a'zosi, "Bau und Verwaltungsgesellschaft mbH" kompaniyasi ijrochi direktori Angel Papenburgning O'zbekistonning Saksoniya-Anxalt va Quyi Saksoniya federal shtatlaridagi faxriy konsuli etib tayinlangani ham ikki mamlakat kompaniyalari o'rtasidagi o'zaro manfaatli munosabatlarni kengaytirishga xizmat qilmogda, shuningdek, kelajakda yuqori texnologiya va innovatsiyalar sohasida

ko'plab qo'shma loyihalarni amalga oshirishni rag'batlantirmogda.

O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi o'zaro savdoni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda tovar ayiriboshlash doimiy ravishda 1 milliard dollardan oshdi. Germaniyaga o'zbek mahsulotlari eksport doirasi kengaymogda, bugungi kunda ushbu mamlakatga xizmatlar, to'qimachilik, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar sotilmogda. O'zbekiston, o'z navbatida, Germaniyadan mexanik asbob-uskunalar, transport vositalari va ehtiyot qismlar, farmatsevtika hamda kimyo mahsulotlari va xizmatlarini import qiladi.

Germaniya mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion va texnologik rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish, davlat boshqaruvida islohotlarga ko'maklashish, shuningdek, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga yordam ko'rsatib kelgan va bu jarayon davom etmogda.

Germaniya taraqqiyot banki "KfW" va Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) orqali jalb etilgan imtiyozli kredit va grant mablag'lari hisobidan respublikada ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi qator dastur va loyihalar amalga oshirilmogda.

Ushbu mamlakatning qator nufuzli siyosiy jamg'armalari va nodavlat notijorat tashkilotlari, xususan, Konrad Adenauer, Fridrix Ebert, Xans Zaydel va boshqa jamg'armalari bilan birgalikda amalga oshirilayotgan loyihalar ham e'tiborga molik. O'zbekiston va Germaniya "yashil" rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, transport va logistika, sanoat kooperatsiyasi, texnologiya, sog'liqni saqlash va ta'lim, inson kapitalini rivojlantirish kabi jabhalarda hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega.

Germaniyada ikki tomonlama munosabatlar faollashayotgan bir paytda

O'zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi va sayyohlik salohiyatiga qiziqish ortib bormogda.

2023-yil may oyida Berlin shahridagi Muzeylar oroli hududida "O'zbekistonning arxeologik xazinalari. Makedoniyalik Iskandardan Kushonlar saltanatigacha" nomli noyob ko'rgazmaning ochilishi ikki davlat madaniy hayotidagi ulkan loyiha bo'ldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Federal Prezident Frank-Valter Shtaynmayer bilan birgalikda ko'rgazmaning ochilish marosimida ishtirok etdi. Joriy yilning 14-yanvarigacha davom etgan mazkur ko'rgazmada Berlin davlat muzeylari to'plamlaridan 65 ta, O'zbekiston muzeylari to'plamlaridan esa 285 ta eksponat namoyish etildi. E'tiborlisi, ularning aksariyati birinchi marta mamlakatimiz tashqarisida taqdim qilindi. Noyob ko'rgazmada yurtimizning qadimiy va boy madaniyati, hozirgi O'zbekiston va Markaziy Osiyo hududidagi ilk davlatlar tarixi, miloddan avvalgi VI asrdan to milodiy IV asrgacha bo'lgan davrlar haqida hikoya qilinadi.

Mazkur ko'rgazma Germaniya jamoatchiligining O'zbekiston bilan aloqalarni kengaytirishga qiziqishini yanada oshirdi.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, Germaniyada o'zbek tilini o'rganishga qiziqish ortib bormogda. Chunonchi, ushbu mamlakatning bir qator yetakchi oliy o'quv yurtlarida o'zbek tili va adabiyoti kafedralari mavjud.

O'z navbatida, O'zbekistonda ham Germaniya, uning madaniyati, tili, ta'lim va biznes imkoniyatlariga qiziqish ortib boryapti. Xususan, respublikamizdagi 980 ta maktabda 270 mingga yaqin o'quvchi nemis tilini o'rganmogda, ularga 3 mingdan ortiq o'qituvchi mazkur tildan saboq bermoqda. Germaniyada O'zbekistonning barcha hududlaridagi o'qituvchilarning malakasini oshirish, mamlakatimizda nemis tilini o'qitish uslublarini joriy etish amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

Gyote instituti, Konrad Adenauer va Fridrix Ebert fondlari, Germaniya xalq universitetlari assotsiatsiyasining Xalqaro hamkorlik instituti, Xorijdagi maktablar markaziy boshqarmasining nemis tili bo'yicha maxsus maslahatchi-koordinatori ofisi vakolatxonalarini ham nemis tilini o'rganish istagida bo'lgan o'zbek yoshlari qamrovini kengaytirishga o'z hissasini qo'shayotir.

2009-yil iyun oyidan boshlab O'zbekistonda Germaniya Tashqi ishlar vazirligining "Maktablar: kelajak hamkorlari" tashabbusi amalga oshirilayapti hamda Chet eldagi maktablar markaziy boshqarmasi va Gyote

instituti nemis tilini o'rgatuvchi maktablarning o'quv va moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga ko'maklashmogda.

Yaqinda Andijon shahridagi maktab o'quvchisi Rayyona Ibrohimovaning Germaniyada bo'lib o'tgan nemis tili bo'yicha nufuzli olimpiadada 62 davlatdan kelgan 14 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan 100 dan ortiq ishtirokchi orasida 1-o'rinni egallagan o'zbek o'quvchilarining muvaffaqiyati va bilim darajasini namoyish qildi.

Oliy ta'lim sohasida O'zbekiston universitetlari Germaniyaning 30 dan ortiq oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatgan. Germaniya akademik almashinuv xizmati — DAAD orqali Germaniyaning turli ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida 1000 ga yaqin o'zbekistonlik talaba, aspirant va doktorantlar tahsil olmogda.

Hududlararo sheriklik munosabatlari ham izchil va samarali rivojlanmogda. Toshkent va Berlin, Buxoro va Bonn shaharlari o'rtasida birodarlik aloqalari yo'lga qo'yilgan. Ushbu dastur doirasida samarali madaniy-ma'rifiy almashinuvlar, barqaror rivojlanishga qaratilgan loyihalar hayotga tatbiq etilmogda.

Mehnat migratsiyasi sohasidagi aloqalar Germaniya bilan hamkorlikning istiqbolli yo'nalishiga aylangan. Xususan, tayyorlanayotgan ikki tomonlama hukumatlararo bitim O'zbekiston fuqarolarini Germaniyada maqsadli ixtisoslashtirilgan ishga joylashtirish uchun zarur huquqiy baza va keng imkoniyatlar yaratadi.

So'nggi yillarda sog'liqni saqlash sohasida hamkengko'lamlivao'zaromanfaatliqo'shma loyihalar amalga oshirilmogda. Jumladan, 2019-yil noyabr oyida Germaniyaning "Heinemann Medizintechnik", "KarlStorz", "Greiner" va "KfWBank Group" kompaniyalari ko'magida Qoraqalpog'iston Respublikasidagi U.Xolmurodov nomidagi Respublika ko'p tarmoqli tibbiyot markazi negizida Germaniya — O'zbekiston tibbiy-konsultativ-diyagnostika markazi tashkil etildi. Unda Germaniyaning yetakchi klinikalaridan kelgan shifokorlar ushbu markazda bemorlarga operatsiya va maslahatlar bepul amalga oshirdi.

2023-yil fevral oyida Germaniyaning Sharite universiteti va Robert Kox instituti klinikalari bilan birgalikda tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va xorijiy investorlarni jalb qilish bilan shug'ullanuvchi "Robert Kox-Ibn Sino" tibbiyot jamg'armasi tashkil etildi.

2023-yil may oyida mazkur jamg'arma bilan hamkorlikda Samarqand shahrida birinchi O'zbekiston — Germaniya xalqaro tibbiyot forumi tashkil etilgan bo'lsa, joriy yil 18-19-aprel kunlari Berlin shahrida ushbu formatdagi ikkinchi tadbir bo'lib o'tdi.

Joriy yil iyun oyida Samarqand shahrida ochilgan Ibn Sino va Genrix Shipperges nomidagi Tibbiyot fanlari oliy maktabi O'zbekiston — Germaniya nodavlat ta'lim muassasasida sog'liqni saqlash sohasining yuqori malakali o'rta bo'g'in mutaxassisi va menejerlari tayyorlanadi.

Nemis xayriya tashkilotlari bilan sheriklik doirasida O'zbekistonga bemor bolalarni Germaniya klinikalarida davolash, shifoxonalarni tibbiy asbob-uskuna va jihozlar bilan ta'minlashda bepul yordam ko'rsatayotgan yirik gumanitar loyihalarni alohida ta'kidlash kerak. Masalan, "Friedensdorf International" xalqaro xayriya tashkiloti va "Sog'lom avlod uchun" jamg'armasi tomonidan O'zbekistondagi bemor bolalarni Germaniyaga davolanishga yuborish bo'yicha navbatdagi qo'shma gumanitar aksiya o'tkazilmogda. Uning doirasida 2002-yildan 2024-yilgacha 12 yoshgacha bo'lgan 434 nafar bola Germaniya klinikalarida uzoq muddatli — 6 oydan 2 yilgacha bepul davolandi. Bundan tashqari, 2004-2024-yillar davomida "Friedensdorf International" xalqaro tashkiloti ko'magida O'zbekistondagi davolanishga tug'ma nuqsoni bo'lgan va kuyish bilan og'rikan 6743 bemor davolandi. 20 yillik hamkorlik davrida ushbu nemis tashkiloti "Sog'lom avlod uchun" jamg'armasiga dori-darmon va tibbiy buyumlar ko'rinishidagi insonparvarlik yordamini ham taqdim etdi.

Madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirish haqida so'z borar ekan, bugungi kunda besh mingdan ortiq kishini tashkil etuvchi O'zbekistondagi nemis diasporasining hissasini alohida qayd etish to'g'ri bo'ladi. Mamlakatimizda ular nafaqat o'zbek jamiyatining ajralmas qismi, balki ikki davlat o'rtasidagi ko'prik vazifasini ham o'taydi. Nemis diasporasining huquq va manfaatlarini ta'minlash maqsadida O'zbekistonda yashovchi nemislar masalasi bo'yicha Hukumatlararo komissiya tuzilgan va u samarali faoliyat yuritmogda.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, O'zbekiston bilan Germaniya o'rtasidagi munosabatlar keyingi yillarda sifat jihatidan yangi, o'zaro anglashuv hamda ishonchning yanada yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Shu nuqtayi nazardan, Germaniya Federal Kansleri Olaf Sholsning mamlakatimizga rasmiy tashrfi o'zaro manfaatli siyosiy muloqotga, ko'p qirrali munosabatlarni yanada faollashtirishga, o'zbek va nemis xalqlari o'rtasidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlashga yangi sur'at bag'ishlaydi.

"Dunyo" AA

## GERMANIYA VA O'ZBEKISTON O'RTASIDAGI ALOQALAR IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLAR TARIXIDAGI YUKSAK CHO'QQIGA YETDI

### Boshlanishi 1-betda

Germaniya Kansleri oxirgi marta O'zbekistonga, umuman, mintaqaga 22 yil avval tashrif buyurgan edi. Shuning o'ziyoq mazkur tashrifning naqadar muhimligidan dalolat beradi. Shuningdek, Germaniya uchun O'zbekiston hamda Markaziy Osiyo davlatlarining alohida ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Tashrif ikki tomonlama aloqalarimiz yanada rivojlanishiga qo'shimcha turki beradi. Kansler delegatsiyasi tarkibidan Germaniyaning yirik ishbilanmon doiralari vakillari ham o'rin olgan. Bu esa tashrif doirasida iqtisodiy masalalarga alohida urg'u berilishining belgisidir. Umuman olganda, siyosiy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalaridagi aloqalar batafsil muhokama qilinadi. Uchrashuvlarda salmoqli bitim va hujjatlar, jumladan, Germaniya va O'zbekiston o'rtasida migratsiyaga oid keng qamrovli sheriklik to'g'risidagi bitim imzolashni kutilmogda.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tishim kerakki, Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi aloqalar bugungi kunda hali hech qachon ikki tomonlama munosabatlar tarixida bo'lmagan darajadagi cho'qqiga yetdi. O'zbekiston o'zini butun dunyo mamlakatlariga ochdi va barcha sohalaridagi imkoniyatlari, salohiyatidan unumli foydalanish uchun yangi qadamlar qo'ymogda.

Davlatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro savdo aylanmasi hajmini ko'paytirish, investitsiyalar kiritish va birgalikda

iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, ilm-fan vakillari o'rtasidagi almashinuvni yanada rivojlantirish va xalqlarimizni yaqinlashtiruvchi qator jabhalardagi hamkorlikni yanada kengaytirishdan ikki tomon ham manfaatdor.

**Bugungi kunda iqtisodiy aloqalar O'zbekiston — Germaniya munosabatlarining eng muhim qismidir. So'nggi yillarda, ayniqsa, bu borada yuqori dinamika qayd etilmogda. Siz buni qanday baholaysiz, umuman, O'zbekistonning Germaniya uchun iqtisodiy va investitsiyaviy jolibadorligi qanday? Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlar munosabati bilan O'zbekistonning zamonaviy rivojlanishi, yaratilgan ishbilanmonlik muhiti Germaniya uchun qanday imkoniyatlar ochmogda, deb o'ylaysiz?**

— So'nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev va O'zbekiston hukumati tomonidan barcha sohalarida, jumladan, iqtisodiy sohada ham qator islohotlar amalga oshirildi. Iqtisodiyotni liberalashtirish va bu boradagi holatlarni qaytadan tartibga solish, shaxsiy mulk huquqining daxlsizligi kabi yo'nalishlar o'z natijasini ko'rsata boshladi.

O'zbekiston iqtisodiyoti bugungi kunda keng rivojlanmogda, bu esa nemis iqtisodiyoti uchun juda ijobiy holat hisoblanadi. Kompaniyalarimiz diversifikatsiya qilingan sharoitda o'z faoliyatini olib borish tarafdori. O'zbekistonda mavjud nemis kapitali



**Davlatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro savdo aylanmasi hajmini ko'paytirish, investitsiyalar kiritish va birgalikda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, ilm-fan vakillari o'rtasidagi almashinuvni yanada rivojlantirish va xalqlarimizni yaqinlashtiruvchi qator jabhalardagi hamkorlikni yanada kengaytirishdan ikki tomon ham manfaatdor.**

asosidagi kompaniyalarning ayrimlari bir necha yillar davomida bu yerda faoliyat yuritib, ko'plab tovar va mahsulotlar ishlab chiqarmogda, yaratilgan sharoit va imkoniyatlardan foydalanmogda. Biroq davlatlarimiz o'rtasidagi salohiyat juda yuqori. Birgina tekstil va agrar sohadagi aloqalarni misol qiladigan bo'lsak, foydalanilmagan katta salohiyat mavjudligini

ko'ramiz. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston modernizatsiya va juda to'g'ri islohotlar yo'lidan bormogda.

**Germaniyadagi o'zbek diasporasi va O'zbekistondagi etnik nemis diasporasi haqida gap borganda ushbu munosabatlarni qanday baholash mumkin. Umuman olganda, xalq diplomatiyasi,**

**madaniyat, san'at, turizm va boshqa yo'nalishlarda mamlakatlarimizning istiqbolini qanday baholaysiz?**

— Bilasizmi, O'zbekiston bozori Markaziy Osiyo bozoriga kirish darvozasi hisoblanadi va shu bilan birga, ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Mamlakatimiz tabiiy resurslarga boy, turizm salohiyati juda yuqori, izlanuvchan, o'rganishga qiziqish baliand yorshlarining ko'p. Ushbu omillarning o'ziyoq, yurtimizning kelajagiga ishora qiladi.

Yaqinda nemis diasporasining Toshkentdagi markazi ochilishida ishtirok etdim va bu ishlarim barchasini amalga oshirish O'zbekiston hukumatining qo'llab-quvvatloviz imkonsiz ekanligini tushundim. Bilamiz, nemislarim bu hududagi, mintaqadagi tarixi kamilada 50 yilni tashkil etadi. Hozirgi vaqtga qadar ular O'zbekistonda yashab, ijtimoiy-iqtisodiy jaryonlarni amalga oshirishda o'z hissasini qo'shib kelgan.

Shu o'rinda Germaniyaning Markaziy Osiyo, Janubiy Kavkaz va boshqa davlatlarda yashovchi nemis diasporalari bo'yicha vakili Pavlik nonimning quyidagi so'zlarini ta'kidlamogchimam: "Diaspora siyosati, bu — tinchlik siyosati deganidir". Men bu fikrga to'liq qo'shilaman, chunki hamma narsani siyosat yoki iqtisodiy rivojlanishga tashlab qo'yib bo'lmaydi. Bu rivojlanish har doim madaniy va insonlar o'rtasidagi aloqalar, almashinuvlarga borib taqaladi. Shunday ekan, madaniy aloqalarni doimiy rivojlantirib

borishimiz kerak, chunki bu bizning umumiy munosabatlarni mustahkamlashga hissa qo'shadi.

**Markaziy Osiyo davlatlari orasida nemis tilini o'rgatuvchi maktablar soni bo'yicha O'zbekiston birinchi o'rinda turadi. Umuman olganda, O'zbekiston va Germaniya o'rtasida ta'lim sohasidagi hamkorlik yildan yilga yuksalib borayotganini kuzataypmiz. Ushbu yo'nalishdagi ishlar haqida qanday fikrdasiz?**

— Darhaqiqat, nemis tilini o'rganuvchilar soni ko'pligi juda quvonarli. Ushbu darajani ushlab qolish va rivojlantirish uchun yetarlicha ishlar amalga oshirilmogda. O'zbekistonda 19 ta PASCH maktablari bor, ular "kelajak maktablari" hisoblanadi, bundan tashqari, nemis tili diplomini beruvchi maktablar ham mavjud. Gyote instituti va Chet eldagi maktablar bo'yicha markaziy idora faoliyat yuritadi. Shuningdek, O'zbekiston va Germaniya universitetlari, Myunxen texnika universiteti va "Yangi O'zbekiston" universiteti o'rtasida mustahkam aloqa yo'lga qo'yilgan. Buning natijasida yosh o'zbek olimlari uchun qisqa va uzoq muddatli stipendiyalar joriy etilishi ko'rib chiqilmogda.

Yuqorida ta'kidlaganimdek, Germaniya va O'zbekiston munosabatlari turli sohalarida muntazam yuqori o'sish natijalarini qayd etmogda.

"Dunyo" AA



Jizzaxliklar davlatimiz mustaqilligining o'ttiz uch yillik tantanalarini mana shunday turli sohalarda erishgan ulkan yutuqlari bilan ko'tarinki ruhda kutib oldi. Bu, avvalo, shahar-u qishloqlarning obod qiyofasi, aholining kayfiyati-yu farovon turmush tarzida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.



## Islahot odimlari

### JIZZAX VILOYATI:

# ULUG'VOR YUKSALISHLAR O'G'USHIDA

**Bekzod ABDUAZIMOV,**  
Jizzax viloyati hokimligi  
axborot-tahlil guruhi rahbari

#### Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimizda yangi O'zbekiston davri boshlangach, boshqa hududlar qatori Jizzax viloyatida ham keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Avvalo, viloyatda ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalari jadal rivojlantirilib, aholi daromadi-yu turmush tarzini yaxshilashga alohida e'tibor qaratildi.

Viloyatning barcha shahar va tumanlarida sanoat korxonalarini tashkil etish uchun alohida maqsadli imtiyoz va preferensiyalar joriy qilinishi natijasida ko'plab sanoat korxonalarini ish boshladi. Pirovardida, Jizzax viloyatida so'nggi besh yilda qayta ishlab chiqarish hajmi 1,6 barabarga ko'payib, o'tgan yilning o'zida 19 trillion so'mni tashkil qildi. Ekspert hajmi 2,2 barabarga oshib, 202 million dollarga yetdi. Joriy yilda esa bu ko'rsatkichni 315 million dollarga yetkazish belgilangan. Viloyatda o'tgan yili ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot hajmi 33,3 trillion so'mga, joriy yilning olti oyida esa 16,2 trillion so'mga yetdi.

Hududga kiritilayotgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdori ham yil sayin o'sib bormoqda. Xususan, 2018-yilda bor-yo'g'i 30 million dollar xorijiy investitsiya o'zlashtirish bo'lsa, o'tgan yili bu raqam qariyb 700 million dollarni tashkil etdi. Joriy yilda ham 60 ta investitsiya loyihasi doirasida 1,1 milliard dollar miqdorida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilishi prognozi belgilangan.

Darhaqiqat, investitsiyalar taraqqiyotning asosiy harakatlanuvchi vositasidir. O'tgan yil yakuni bo'yicha viloyatda 710 ta investitsiya loyihasi hisobiga o'n mingdan ziyod yangi ish o'rnini yaratilgan. Ularni shakllantirish va amalga oshirishda har bir tumaning salohiyati va imkoniyati inobatga olingan. Xususan, Forish va Zafarobod tumanlarida qurilish materiallarining tabiiy resurslari mavjudligidan kelib chiqib, ular qurilish materiallari sanoatiga, Baxmal tumanida dunyoga mashhur o'lmar yetishtirilishi inobatga olinib, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlab chiqarishga, paxta xomashyosi ishlab chiqarishga qulay bo'lgan Zarbdor, Paxtakor, Do'stlik, Arnasoy va Mirzacho'l tumanlari esa yengil sanoatga ixtisoslashtirilmoqda. Shuningdek, G'allaorol tumanida metallni qayta ishlab, muqobil energiya manbalari yaratish yo'nalishlarida, Zomin tumanida esa xitoylik investorlar bilan birgalikda sanoat texnoparkini tashkil qilish yuzasidan amaliy ishlar olib borilmoqda.

#### Sayyohlik — serdaromad soha

Jizzax — sayyohlik salohiyati yuqori bo'lgan viloyatlardan biri. Mamlakatimizning markaziy qismida joylashgan ushbu voha o'ziga xos tarixi, qulay iqlim sharoiti va go'zal tabiiyati tog'lar bilan turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoitlarga ega. Viloyatda ikkita yirik tog' tizmasi — Turkiston va Nurota tog'larini, Aydarko'l ko'li mavjud bo'lib, ular asosiy bioxilma-xillikni saqlab qolish, iqlimni mo'tadillashtirish, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, Zomin va Nurota qo'riqxonalarini, Zomin milliy bog'i hududida noyob hayvonlar, o'simliklarni muhofaza qilish yo'liga qo'yilgan. Mazkur hududlarda ekoturizm yo'nalishlari tashkil etilgan. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida mavsumga mos ravishda cho'l turizmi takomillashib bormoqda.

Zomin, Baxmal tumanlarining purvir qo'riqlari, Forishning qadimiy qishloqlari, tog'laridagi petrogliflar, betakor hayvonot va nabotot olami, Jizzaxning mashhur somsasi, Zomin tandiri-yu asali, Baxmal olmasi, Forish

kishimishi, Mirzacho'l qovuni-yu, Ravot tarvuzi mahalliy va xorijlik sayyohlarni ohanrabodek o'ziga tortadi.

Bundan tashqari, bu qadimiy yurtda Sa'd ibn Vaqqos, O'smat ota, Novqota ota, Xo'ja bog'bon ota, Xo'jamshukht ota, Parpi ota, Sayfin ota, Savruk ota, Qul'fisar ota kabi ziyoratgohlar, Baxmal, Zomin, Sharof Rashidov, G'allaorol, Forish kabi tumanlari tog'li hududlaridagi tarkibida oltingugurt, vodorod, kremniy kislatasi, karbon gazi, ishqoriq termo-mineralar bo'lgan shifobaxsh suv manbalari har qanday insonni o'ziga chorlaydi.

Ammo turizm sohasida shunday ulkan salohiyatga ega bo'la turib, hududda uzoq yillar bu imkoniyatdan to'liq va samarali foydalanilmay kelingan. Yaqin yillargacha turizm rivojini uchuq qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratilmagan, hamma o'z bilganicha faoliyat yuritgan.

Bugungi kunga kelib, buning aksini o'laroq, turizm — viloyat iqtisodiyotining "driver" sohalaridan biriga aylanoqda. Viloyatda turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda xorijlik va mahalliy tashrif buyuruvchilarni olib qolish bo'yicha 5 kunlik marshrut "7 yulduz turizm halqasi" ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, barcha ziyoratgohlar imkoniyatlarini to'liq ishga solinib, yildan yilga ko'proq ziyoratchilarni jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi amalga oshirilmoqda.

Ichki turizmni yanada qo'llab-quvvatlash va xorijlik sayyohlarga qulayliklar yaratish maqsadida, Toshkent — Samarqand — Toshkent yo'nalishidagi yuqori tezlikda harakatlanuvchi "Afrosiyob" elektropoyezdi Zomin tumanidagi "Dastobod" bekati to'xtab o'tadigan bo'ldi. Bundan tashqari, Zomin aeroporti foydalanishga topshirildi.

"O'zbekiston Shveysariyasi" — Zominning archarlar bog' qoplangan o'rmonlari, toza havosi, maftunkor tabiiyati sayyohlarni o'ziga jalb qilmoqda. Dengiz sathidan 2400 metr balandlikda joylashgan Saffa platosida "Zomin turistik rekreatsion zonasi" tashkil etilishi, bu yerda 3 ta zamon talablariga mos mehmonxonalar qurilgani, uzunligi 2600 metr bo'lgan zamonaviy osma dor yo'li hamda uzunligi 305 metr, balandligi 150 metr, bir vaqtning o'zida 600 nafar odamni ko'tara olish quvvatiga ega bo'lgan osma (shisha) ko'priknin foydalanishga topshirilishi sayyohlarni jalb qilish imkoniyatini yaratdi.

Jizzaxda tashkil etilgan ikkinchi yirik avtomobil ishlab chiqarish korxonasi "BYD Uzbekistan Factory" bo'lib, mazkur korxonada muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida harakatlanadigan mashinalar ishlab chiqarish yo'liga qo'yildi.

Ushbu yirik loyiha faoliyatiga 2023-yil 19-may kuni davlatimiz rahbarining Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrif doirasida start berilgandi. Qiymati 160 million dollarlik mazkur loyihaning birinchi bosqichida dastlab, yiliga 50 ming dona, loyiha to'liq ishga tushgach esa yiliga 300 ming dona gibrid va elektr avtomobillar ishlab chiqarish imkoniyati paydo bo'ladi. Ikkinchi bosqichda esa qiymati 300 million dollarlik loyiha hisobiga avtomobillar sonini yiliga 200 ming donaga, 500 million dollarlik uchinchi bosqichda esa 500 ming donagacha yetkazish ko'zda tutilgan.

Zavodga tashkil etilgan ikkinchi yirik avtomobil ishlab chiqarish korxonasi "BYD Uzbekistan Factory" bo'lib, mazkur korxonada muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida harakatlanadigan mashinalar ishlab chiqarish yo'liga qo'yildi.

Ushbu yirik loyiha faoliyatiga 2023-yil 19-may kuni davlatimiz rahbarining Xitoy Xalq



#### Avtomobilsozlik — yangi driver yo'nalish

O'zbekiston xalqining avtomobillarga qiziqishi juda baland. Yaqin yillargacha nafaqat mamlakatimizda, balki Markaziy Osiyo davlatlari orasida Asaka shahridagi hozirgi "UzAuto Motors" kompaniyasi va uning Xorazmdagi filialida yengil avtomobillar ishlab chiqariladi.

2021-yili davlatimiz rahbari tadbirkorlar bilan muloqoti chog'ida Jizzaxda hech kim tasavvur qilmagan 2-3 ta avtomobil zavodi ochilayotganini ma'lum qilgandi. Ushbu muloqotdan so'ng oradan hech qancha vaqt o'tmay, Jizzax erkin iqtisodiy zonasida "ADM Jizzakh" yengil avtomobilsozlik zavodi o'z faoliyatini boshladi. Ushbu korxonada dastlab, "Lada" avtomobillarini seriyali yig'ish boshlangan bo'lsa, ayni paytda "Kia", "Chery" kabi brendlar ostida o'ndan ortiq modelda zamonaviy avtomobillar xalqimizga taqdim etilmoqda. Loyiha doirasida 234 million dollar miqdorida mablag'lar o'zlashtirilib, o'tgan uch yilda "Lada", "Kia", "Chery" hamda "Haval" brendlari ostida 23 turdagi 36 mingta avtomobil ishlab chiqarilgan. Korxonada Janubiy Koreya, Yaponiya va Germaniya kabi davlatlardan keltirilgan texnologik uskunalari bilan jilozlangan.

2024-2027-yillarda 348 turdagi butlovchi qismlarni mahalliyashtirish rejalashtirilgan. Ayni paytda O'zbekistonda 21 ta korxonada bilan kooperatsiya tizimi yo'lga qo'yilgan.

"ADM Jizzakh" zavodida ikkinchi bosqichda 310 million dollardan ortiq investitsiya jalb qilinib, asosiy butlovchi qismlarni o'zlashtirish orqali avtomobillarni mahalliyashtirish darajasini 30 foizga yetkazish nazarda tutilgan.

Zavod ma'muriyati butun dunyoda avtomobillarga talab oshib borayotganini inobatga olib, uchinchi bosqichda yangi energiya manbalari avtomobillarni ishlab chiqarish va ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish ustida ish olib bormoqda. Umuman olganda, zavodni rivojlantirish strategiyasiga ko'ra, 2030-yilgacha ishlab chiqarish hajmini yiliga 300 mingtaga yetkazish belgilangan.

Jizzaxda tashkil etilgan ikkinchi yirik avtomobil ishlab chiqarish korxonasi "BYD Uzbekistan Factory" bo'lib, mazkur korxonada muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida harakatlanadigan mashinalar ishlab chiqarish yo'liga qo'yildi.

Ushbu yirik loyiha faoliyatiga 2023-yil 19-may kuni davlatimiz rahbarining Xitoy Xalq

Respublikasiga davlat tashrif doirasida start berilgandi. Qiymati 160 million dollarlik mazkur loyihaning birinchi bosqichida dastlab, yiliga 50 ming dona, loyiha to'liq ishga tushgach esa yiliga 300 ming dona gibrid va elektr avtomobillar ishlab chiqarish imkoniyati paydo bo'ladi. Ikkinchi bosqichda esa qiymati 300 million dollarlik loyiha hisobiga avtomobillar sonini yiliga 200 ming donaga, 500 million dollarlik uchinchi bosqichda esa 500 ming donagacha yetkazish ko'zda tutilgan.

Zavodga tashkil etilgan ikkinchi yirik avtomobil ishlab chiqarish korxonasi "BYD Uzbekistan Factory" bo'lib, mazkur korxonada muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida harakatlanadigan mashinalar ishlab chiqarish yo'liga qo'yildi.

Ushbu yirik loyiha faoliyatiga 2023-yil 19-may kuni davlatimiz rahbarining Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrif doirasida start berilgandi. Qiymati 160 million dollarlik mazkur loyihaning birinchi bosqichida dastlab, yiliga 50 ming dona, loyiha to'liq ishga tushgach esa yiliga 300 ming dona gibrid va elektr avtomobillar ishlab chiqarish imkoniyati paydo bo'ladi. Ikkinchi bosqichda esa qiymati 300 million dollarlik loyiha hisobiga avtomobillar sonini yiliga 200 ming donaga, 500 million dollarlik uchinchi bosqichda esa 500 ming donagacha yetkazish ko'zda tutilgan.

Zavodga tashkil etilgan ikkinchi yirik avtomobil ishlab chiqarish korxonasi "BYD Uzbekistan Factory" bo'lib, mazkur korxonada muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida harakatlanadigan mashinalar ishlab chiqarish yo'liga qo'yildi.

Ushbu yirik loyiha faoliyatiga 2023-yil 19-may kuni davlatimiz rahbarining Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrif doirasida start berilgandi. Qiymati 160 million dollarlik mazkur loyihaning birinchi bosqichida dastlab, yiliga 50 ming dona, loyiha to'liq ishga tushgach esa yiliga 300 ming dona gibrid va elektr avtomobillar ishlab chiqarish imkoniyati paydo bo'ladi. Ikkinchi bosqichda esa qiymati 300 million dollarlik loyiha hisobiga avtomobillar sonini yiliga 200 ming donaga, 500 million dollarlik uchinchi bosqichda esa 500 ming donagacha yetkazish ko'zda tutilgan.

Zavodga tashkil etilgan ikkinchi yirik avtomobil ishlab chiqarish korxonasi "BYD Uzbekistan Factory" bo'lib, mazkur korxonada muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida harakatlanadigan mashinalar ishlab chiqarish yo'liga qo'yildi.

Ushbu yirik loyiha faoliyatiga 2023-yil 19-may kuni davlatimiz rahbarining Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrif doirasida start berilgandi. Qiymati 160 million dollarlik mazkur loyihaning birinchi bosqichida dastlab, yiliga 50 ming dona, loyiha to'liq ishga tushgach esa yiliga 300 ming dona gibrid va elektr avtomobillar ishlab chiqarish imkoniyati paydo bo'ladi. Ikkinchi bosqichda esa qiymati 300 million dollarlik loyiha hisobiga avtomobillar sonini yiliga 200 ming donaga, 500 million dollarlik uchinchi bosqichda esa 500 ming donagacha yetkazish ko'zda tutilgan.

Zavodga tashkil etilgan ikkinchi yirik avtomobil ishlab chiqarish korxonasi "BYD Uzbekistan Factory" bo'lib, mazkur korxonada muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida harakatlanadigan mashinalar ishlab chiqarish yo'liga qo'yildi.

Ushbu yirik loyiha faoliyatiga 2023-yil 19-may kuni davlatimiz rahbarining Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrif doirasida start berilgandi. Qiymati 160 million dollarlik mazkur loyihaning birinchi bosqichida dastlab, yiliga 50 ming dona, loyiha to'liq ishga tushgach esa yiliga 300 ming dona gibrid va elektr avtomobillar ishlab chiqarish imkoniyati paydo bo'ladi. Ikkinchi bosqichda esa qiymati 300 million dollarlik loyiha hisobiga avtomobillar sonini yiliga 200 ming donaga, 500 million dollarlik uchinchi bosqichda esa 500 ming donagacha yetkazish ko'zda tutilgan.

Zavodga tashkil etilgan ikkinchi yirik avtomobil ishlab chiqarish korxonasi "BYD Uzbekistan Factory" bo'lib, mazkur korxonada muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida harakatlanadigan mashinalar ishlab chiqarish yo'liga qo'yildi.

Ushbu yirik loyiha faoliyatiga 2023-yil 19-may kuni davlatimiz rahbarining Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrif doirasida start berilgandi. Qiymati 160 million dollarlik mazkur loyihaning birinchi bosqichida dastlab, yiliga 50 ming dona, loyiha to'liq ishga tushgach esa yiliga 300 ming dona gibrid va elektr avtomobillar ishlab chiqarish imkoniyati paydo bo'ladi. Ikkinchi bosqichda esa qiymati 300 million dollarlik loyiha hisobiga avtomobillar sonini yiliga 200 ming donaga, 500 million dollarlik uchinchi bosqichda esa 500 ming donagacha yetkazish ko'zda tutilgan.

Zavodga tashkil etilgan ikkinchi yirik avtomobil ishlab chiqarish korxonasi "BYD Uzbekistan Factory" bo'lib, mazkur korxonada muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida harakatlanadigan mashinalar ishlab chiqarish yo'liga qo'yildi.

eng muhimi, yangi ish o'rinlari yaratilib, aholi hamda mahalliy byudjet daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimizda agrar sohani isloh qilish borasidagi islohotlar o'z samarasini bermoqda. Buni, avvalo, yer egalari moddiy manfaatdorligi oshgani, paxta va g'alla kabi asosiy ekinlardan yuqori hosil oloyotganidan ham bilsak bo'ladi.

#### Iqtisodiyot lokomotivi

Viloyatda yengil sanoatni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida to'qimachilik va tikuv-trikotaj sohasi jadal rivojlanib bormoqda. Ayni paytda yengil sanoat tarmog'i korxonalarida o'n mingga yaqin fuqarolar band.

Jizzax viloyatida 7 ta paxta-to'qimachilik klasteri va 51 ta yirik to'qimachilik korxonasi mavjud bo'lib, ular tomonidan hududda yetishtirilgan paxta xomashyosi to'rt bosqichda qayta ishlanib, ichki va tashqi bozorga tayyor raqobatbardosh mahsulotlar yetkazib berilmoqda. Ushbu klasterlar hudud iqtisodiyotining lokomotiviga aylanib borayotganini qayd etish joizdir. Klasterlar qishloq xo'jaligini sanoatlashirish, korxonalar ochish va kasanachilik orqali o'z hududida ishsizlikni kamaytirishga hissa qo'shmoqda.

O'tgan yili viloyatda yetishtirilgan 291 ming tonna paxta xomashyosi qayta ishlanishi natijasida 88 ming tonna (30,2 foiz) tola olinishi hamda 7 klaster tomonidan 83 ming tonna, 9 ta to'qimachilik korxonasi orqali 28,7 tonna ip-kalava ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

Viloyatdagi paxta-to'qimachilik klasterlariga qarashli tekstil korxonalaridan 2022-yilda 49,4 ming tonna, o'tgan yili 98,7 ming tonna ip-kalava mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lsa, joriy yilda buni 112, 2 ming tonnaga yetkazish belgilangan.

Ip-kalavani qayta ishlab natijasida 2022-yilda 115 ming kvadrat metr, o'tgan yili 121 ming kvadrat metr gazlamalar ishlab chiqarilgan. Joriy yilda esa ushbu ko'rsatkichni bir necha barobar oshirish maqsad qilingan.

G'allaorol tumanidagi "Sangzor tekstil" MCH viloyatda birinchilardan bo'lib klaster tizimida faoliyat boshlagan korxonalaridan hisoblanadi. Fabrikada Shveysariya, Yaponiya, Turkiyadan olib kelingan zamonaviy texnologiyalarda toladan ip-kalava yigiriladi. Yillik ishlab chiqarish quvvati 7500 tonnani tashkil etadi.

Hozirgi kunda ishlab chiqarilgan mahsulotlar Rossiya, Turkiya, Xitoy Pokiston va Polsha kabi davlatlarga eksport qilinmoqda.

Ayni paytda korxonada qoshida tashkil etilgan paxta-to'qimachilik klasteri Do'stlik va Mirzacho'l tumanlari fermerlari bilan shartnoma asosida paxta yetishtirishni yo'lga qo'ygan.

"Jizzax kateks" MCHning ip-yigiruv fabrikasi 2020-yilda foydalanishga topshirilgan. Loyiha qiymati 21,8 million yevroni tashkil etuvchi mazkur korxonada paxta tolasini qayta ishlanadi.

Shveysariya, Turkiya va Yaponiyadan keltirilgan dastgohlar yordamida sutkasiga 30 tonna, yiliga 10 ming 500 tonna ip-kalava, trikotaj kiyim-kechaklari tayyorlanadi. Yarim tayyor, tayyor va qayta ishlangan mahsulotlar yuz foiz eksportga chiqariladi.

Yoki Paxtakor tumanidagi "Silverleaf" MCHni olib qaralay. Umumiy qiymati 344 million dollarga teng loyiha doirasida korxonada 35 ming tonna paxta xomashyosi qayta ishlanadi. Loyihaning keyingi bosqichlarida tayyor trikotaj, paxta chigitidan yog' mahsulotlari ishlab chiqarish, urug'chilikni tashkil etish ishlarini amalga oshirish nazarda tutilgan.

Jizzaxliklar davlatimiz mustaqilligining o'ttiz uch yillik tantanalarini mana shunday turli sohalarda erishgan ulkan yutuqlari bilan ko'tarinki ruhda kutib oldi. Bu, avvalo, shahar-u qishloqlarning obod qiyofasi, aholining kayfiyati-yu farovon turmush tarzida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Xalqimizda ming marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal, degan naql bor. Shunday ekan, Jizzaxga mehmon bo'lsangiz, vaqt ajratib Zomin-u Baxmalning quruq archarzori betakor tabiiy qo'ynida, Aydarko'lning sokin sohilida hordiq chiqarib, Forishning necha ming yillik archariyu, noyob hayvonot va nabototini tomasha qilib, Zominning zamonaviy osma dor yo'lidagi uchib, shisha ko'prigidan o'tib, o'ziga xos ta'mga ega Jizzax somsasi-yu, Zomin tandir go'shti hamda qozon patiridan iste'mol qilsangiz, bunga o'zingiz ham guvoh bo'lasiz.





### Nuqtayi nazar

Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar globallashuvi sharoitida dunyo mamlakatlarida turizmning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi o'sish sur'ati sezilarli darajada ortib bormoqda. Aholining dam olishga ehtiyoji va axborot oqimlari keskin ortishi natijasidagi ruhiy zo'riqlashlarni pasaytirish bilan bog'liq ko'plab omillar turizm faoliyatini kengaytirish hamda uni boshqarish jarayonlarini takomillashtirish orqali iqtisodiy o'sish uchun zaruriy shart-sharoitni yaratmoqda.

## "Farg'ona turizm halqasi" hudud imkoniyatini oshiradi



Abdullajon MIRZAYEV, Farg'ona davlat universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Global inqiroz sharoitida yuzaga kelgan retsessiya darajasini tekislashda ichki turizm sohasi, jumladan, uning alohida tarmoqlari bo'lgan agroturizm, ekoturizm hamda rekreatsiya turizmi mavjud salohiyat doirasida rivojlantirish hisobiga soha taraqqiyotini ta'minlashdagi faoliyatni yangicha yondashuv asosida tashkil etish hamda boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish taqozo etilmog'ida.

Hozirgi davrda real sektor tarmoqlaridagi yo'qotishlarni turizmning bog'liq bo'lgan

tashkil etish hisobiga hududlarda aholini yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash hamda soha korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qator vazifalar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda turizmni jadal rivojlantirish istiqbolga mo'ljallangan maqsadli vazifa va ustuvor yo'nalishlarda soha taraqqiyoti uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me'yor va standartlarni kiritish, sog'lomlashtirish turizmiga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish va ularga iqtisodiy dastaklarni yanada kengaytirish, sohaga davlat-xususiy sheriklik mexanizmini keng joriy etish va klasterli yondashuv asosida boshqarish metodologiyalarini takomillashtirishda o'z aksini topmoqda. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida xorijlik sayyohlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo'yicha keladiganlar sonini 3 million nafarga oshirish, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga 30 ta yirik turizm klasterini tashkil etish, mehmon o'rinlari sonini kamida 2 barobar ko'paytirish, tog'li hududlarda 25 ta dor yo'li qurish, turizm mahallalari sonini 175 taga hamda turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish, tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga olib chiqish vazifalari belgilangan.

Albatta, bugun insonlarning jismoniy va ruhiy zo'riqlashning oldini olishga xohishi va istaklari rekreatsiya spektrida joylashgan turistik dam olish maskanlariga qaratilmoqda. Hududlar darajasida Farg'ona viloyatining resurs salohiyati aynan shu yo'nalishda yuqori o'rinni egallaydi. Viloyatda turistik

bo'yicha vazifalar qo'yildi. Jumladan, yangi o'quv yilidan Qo'qon universiteti turizm fakultetida Italiya, Fransiya va Shveysariya o'quv dasturlari joriy qilinishi, xorijlik mutaxassislar olib kelinishi, Qo'qonda Tepa qo'rg'on arxeologik yodgorligini sayyohlar uchun jozibador yo'nalishga aylantirishga 10 milliard so'm ajratilishi belgilandi. Qo'qon aeroportidan Toshkentga har kuni, Samarqand, Buxoro va voha shaharlariga esa har hafta aviaqatnov yo'lga qo'yilishi aytiladi. Marg'ilonga har yili 250 ming mahalliy va 75 ming xorijlik sayyoh kelayotgani, bu ko'rsatkichni oshirish uchun mehmonxona va xizmat ko'rsatish joylarini ko'paytirish zarurligi ta'kidlandi. Shu bois, Marg'ilonda 5 ta mehmonxona, shoirlar va san'atkorlar xiyoboni, maqom teatri, 50 dan ortiq savdo va xizmat ko'rsatish obyekti qurildi.

Farg'ona viloyatida turizm sohasini rivojlantirish borasida yuqoridagi kabi salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda, juda katta turistik resurslar o'zlashtirilmoqda. Viloyat yuqori rekreatsiya, madaniy, ekologik, gastronomik hamda balneologik turistik resurs salohiyatiga ega bo'lgan holda mavjud imkoniyatdan majmuaviy va tizimlashgan ko'rinishda foydalanilmayotgan edi. "Farg'ona turizm halqasi"ning tashkil etilishi bilan alohida va bir-biri bilan bog'lanmagan turistik tuzilmalar o'zaro aloqadagi yaxlit majmua shakliga o'zgarishi kutilmoqda.

Ushbu turistik resurslardan samarali foydalanish va yaqin istiqbolida hosil bo'ladigan "Farg'ona turizm halqasi"ni samarali boshqarishda shu kungacha malakali kadrlarga ehtiyoj bor edi. Bugungi kunda viloyatdagi beshga yaqin oliy ta'lim muassasasida har yili turizm sohasi bo'yicha 250 dan ortiq bakalavr tayyorlanmoqda. Lekin shu yo'nalishda magistratura mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlanmas edi. Farg'ona davlat universitetida 2024/2025-o'quv yilidan boshlab iqtisodiyot fakulteti bazasida turizm va mehmondo'stlik mutaxassisligi bo'yicha magistratura yo'nalishi ochilib, hududdagi turizm yo'nalishida ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Bu mutaxassislar, bir tomondan, oliy ta'lim va kasb-hunar ta'limi tizimi ehtiyojini qondirsa, ikkinchidan, sohaning hududiy rivojlanishini ilmiy asosda yo'lga qo'yishni nazariy va amaliy bilimlarga ega kadrlar orqali ta'minlash imkonini kengaytiradi.

Viloyatdagi mavjud turistik halqaga qo'shilmagan turistik resurs salohiyatini tayyorlanayotgan yuqori malakali kadrlar vositasida iqtisodiy jihatdan o'zlashtirish orqali qisqa davr ichida turizmni hududning sanoat va xizmatlarga sohasidan keyingi yetakchi tarmog'iga aylantirish mumkin bo'ladi.



faoliyatlari bilan integratsiyalash orqali kamaytirish, turizm sohasi tarkibidagi istiqbolli faoliyat yo'nalishlarini rivojlantirish asosida uning yalpi ichki mahsulot va aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi xizmatlar hajmidagi ulushini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Yangi va istiqbolli turistik faoliyat yo'nalishlarini

jozibadorlikni oshirish bo'yicha turizm infratuzilmasini shakllantirish va ko'p sonli sayyohlarni qabul qilish uchun tadbirkorlik subyektlariga keng sharoitlar yaratilmoqda.

Prezidentimizning 2024-yil 11-iyul kuni Farg'ona viloyatiga tashrif davomida ham turizm sohasiga doir qator ishlarni bajarish

### Ta'lim

## SIFAT VA NATIJA

### NAVOIY VILOYATI BITIRUVCHILARI OTMLARGA KIRISH BO'YICHA 3-O'RINDA QAYD ETILDI

Joriy yilning 21-30-iyul kunlari Saudiya Arabistonida bo'lib o'tgan 56-xalqaro kimyo olimpiadasida yurtimiz yoshlari muvaffaqiyatli ishtirok etib, 1 ta oltin, 2 ta kumush va 1 ta bronza medalni qo'lga kiritdi. Navoiy shahridagi 11-alohida fanlar chuqurlashtirib o'tiladigan maktabning 11-sinf o'quvchisi Saida Abdullayeva ham kumush medalga loyiq ko'rildi.

Navoiy viloyati ta'lim sifati va bitiruvchilarning oliy o'quv yurtlariga kirishi bo'yicha respublikada doim yuqori o'rinlarda kelmoqda. Buning natijasida Saida kabi yuksak yutuqlarga erishayotgan navoiylik yoshlar soni ortib bormoqda. Birgina joriy yilning o'zida Navoiy shahri 1-ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 11-sinf o'quvchisi Asadbek Aslonov Hindistonda matematika fanidan o'tkazilgan xalqaro fan olimpiadasida kumush medal, Navoiy shahridagi Prezident maktabining 11-sinf o'quvchisi Mehrangiz

bu yutuqlar maktabdagi ustozlarim mehnati va yoshlarning bilim olishi uchun yaratib berilgan imkoniyatlar va sharoitlar samarasidir, — deydi 56-xalqaro kimyo olimpiadasi sovrindori Saida Abdullayeva. Albatta, bu yutuqlar yurtimizda ta'lim sifati oshirish, sohaga zamonaviy uslublar joriy etilishi, pedagoglarning salohiyati yanada oshishi va ta'lim muassasalaridagi keng imkoniyatlar natijasidir. Navoiy viloyatida ham bu borada qilinayotgan ishlar salmoqli. 2023-2024-o'quv



va pedagoglarning 13 ming 600 nafari o'z yo'nalishida oliy, 1- va 2-toifalarga ega bo'lgan bo'lsa, 2024-yilning birinchi choragiga kelib, ular soni 177 mingga yaqinlashdi. Viloyatimizdagi 1833 chet tili o'qituvchisining 1578 nafari milliy va xalqaro sertifikatlarga ega bo'lib, bu ko'rsatkich 87 foizga yetkazildi. O'tgan yillarda e'lon qilingan milliy reyting natijalariga ko'ra, viloyatimizda 69 ta maktab "qizil" toifaga tushgan edi. Ushbu maktablarda ta'lim sifati oshirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida barchasi "sariq" va "yashil" toifalarga chiqarildi, — deydi Navoiy viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i Ra'no Hayitova.

2024-yilda bitiruvchilarning 1916 nafari dunyo mamlakatlari va O'zbekistonning top universitetlari va institutlariga turli yo'nalishlar bo'yicha muddatidan oldin talaba bo'lish baxtiga musharraf bo'ldi. Shuningdek, oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlari natijalari e'lon qilingach, Navoiy viloyati bitiruvchilari oliy o'quv yurtlariga kirish bo'yicha respublikada 3-o'rinda qayd etildi.

Joriy o'quv yilida Navoiy viloyatidagi 378 ta maktabda 20 mingga yaqin bolajon ilk bor maktab ostonasiga qadam qo'ydi. Muhimi, ta'lim muassasalarida ularning ezgu maqsadlari ro'yobga chiqishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

2024/2025-o'quv yilida viloyatda yangi qurilgan bir necha maktab o'quvchilari ilk marta bag'riga oldi. Navoiy shahridagi 23-umumiy o'rta ta'lim maktabi ham joriy o'quv yili boshlanishi arafasida foydalanishga topshirildi. Soliq qo'mitasi tomonidan ajratilgan 20 milliard so'm mablag' evaziga qurilgan 660 o'rinda ega ushbu 4 qavatli maktab barcha zamonaviy o'quv jihozlari bilan ta'minlangan.

Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish va bir necha xorijiy tilda erkin muloqotga kirisha oladigan jamiyatni shakllantirish davr talabiga aylandi. Maktabimizda ana shunday tamoyillarga asoslangan holda 5 ta xorijiy til bo'yicha ham o'quvchilarga ta'lim beriladi. Nemis, koreys, yapon, ingliz va rus tillari, bir necha sport turlari bo'yicha o'qimcha to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yilgan. Maktabga o'qituvchilar tanlov asosida ishga qabul qilindi. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi mutaxassislari onlayn tanlov jarayonida 1450 o'qituvchi orasidan 45 nafarini tanlab oldi, — deydi Navoiy shahridagi 23-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori Miryoqub Shodiyev.

Ushbu bilim dargohlarida yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga qodir barkamol avlod ta'lim-tarbiya oladi. Bugungi imkoniyatlar, shart-sharoitlar, o'qituvchilarning o'z ishidan mamnun holda faoliyat yuritishi esa yoshlarning yutuqlariga mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

G'olib ABDUSALOMOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Ahtamova Buxoro shahrida o'tkazilgan Abu Ali ibn Sino nomidagi xalqaro olimpiadada oltin medal, shu maktabning 11-sinf o'quvchisi Mashhura Qudratova esa kumush medalni qo'lga kiritdi.

Toshkent shahrida o'tkazilgan Al-Xorazmiy nomidagi yosh matematiklar xalqaro olimpiadasida esa Navbahor tumanidagi 15-maktabning 8-sinf o'quvchisi Nozanin Zoirova, Navoiy shahridagi Prezident maktabining 8-sinf o'quvchisi Odiljon G'oyibnazarov hamda Navoiy shahri 1-ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 7-sinf o'quvchisi Azamat Ergashev bronza medalga loyiq ko'rildi.

Boshlang'ich sinflarda barcha fanlarni yaxshi o'zlashtirgan va matematika fanidan qo'shimcha darslarga ham qatnaganman. Keyinchalik kimyo fanidan darslar qo'shilgach, qiziqishim ortib, ustozlarimdan ko'proq saboq olishni istadim. 9-sinfda ushbu fandan olimpiadalarda ishtirok etdim va tuman, viloyat bosqichlarida g'olib bo'ldim. Xalqaro olimpiadalar saralash jarayonlarida dastlab yaxshi natijalar ko'rsatmagan bo'lsam-da, qo'shimcha tayyorgarlik ko'rib, maqsadimga erishdim. O'zbekistonda birinchi marta bo'lib o'tgan Abu Rayhon Beruniy xalqaro olimpiadasida kumush medal oldim. Saudiya Arabistonida bo'lib o'tgan 56-xalqaro kimyo olimpiadasida ham muvaffaqiyatli ishtirok etib, kumush medalni qo'lga kiritdim. Albatta,

yilida viloyatda respublika va mahalliy byudjetdan ajratilgan 229 milliard so'm mablag' evaziga 32 ta umumiy o'rta ta'lim maktabida qurilish-ta'mirlash ishlari bajarildi. Buning natijasida qo'shimcha 7858 ta o'quvchi o'rni yaratildi.

Xatirchi tumanidagi 18 ta maktab zamonaviy jihozlandi. 133 ta maktabga respublika budjeti va xalqaro grantlar hisobidan 16,3 milliard so'mlik 2141 dona va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan 20 ta maktabga 282 dona zamonaviy kompyuter yetkazib berildi. Bundan tashqari, 85 ta maktab 387 dona elektron doska bilan ta'minlandi.

Ayni vaqtda maktablarda o'quvchilarga kasb-hunar o'rgatishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda 11 ta maktabga 20 turdagi 200 dan ortiq jihoz xarid qilindi va 72 ta maktabning chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik sinfxonalari harbiy ta'lim vositalari bilan jihozlandi. O'quvchilar sifatli ta'lim olishida o'qituvchilarning ilmi, tajribasi va salohiyati muhim o'rinni tutadi. Viloyatda pedagoglarning o'z ustida ishlashi, toifasini oshirib borishi, fanlardan xalqaro va milliy sertifikatga ega bo'lishi natijasida 58 nafari 1000 dollar va 600 nafardan ortig'i 800-900 dollar miqdorida maosh olmoqda.

O'tgan yili viloyatdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi

### DOLZARB MAVZU

Yaxshi kayfiyat, kulgi inson salomatligi uchun foydali ekani tibbiyotda isbotlangan. U esa asosan, uzoq kutilgan yangilikni eshitganingizda, biror hajviy kino yoki video ko'rganingizda paydo bo'ladi.

"Asalning ham ozi shirin", deydi dono xalqimiz. Chunki bir taomni muttasil iste'mol qilaverish ham me'daga tegib qolishi mumkin. Ammo hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarga shunday tobelik shakllandiki, bu narsa me'daga tegish o'rninga, aksincha, borgan sari o'ziga qaram qilib bormoqda. Ana shunday "qaram"lardan bittasi toki ularga o'chligimga qat'iy me'yor qo'yamagunimcha kamina edim. Keling, ana shu qaramlik davri haqida qisqacha hikoya qilib bersam, balki yana kingadir ko'zgu tutarmiz.

Hech bir yashiradigan joyi yo'q, ko'pchiligimiz bir yo'la bir necha ijtimoiy tarmoqlarda faoliz, ularning aksariyati o'zaro muloqot uchun bo'lsa, asosiy qismi ko'ngilochar kontentlarga ixtisoslashgan platformalardir. O'ylab qararasam, ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanishni boshlaganingma to'rt yil bo'ldi. Ularda o'tkazadigan vaqtim borgan sari kamayish o'rninga ko'paya boribdi. Ilgari ko'p qolib ketsam, boshim og'rib qolar hamda telefonni o'chirib, kitob yoki boshqa bir mashg'ulot bilan chalg'ishga harakat qilardim. Biroq borgan sari asab tizimlari ham ijtimoiy tarmoqlarga moslashib, boshim ham og'rimaydigan bo'ldi — o'z-o'zidan endi kitob o'qishga ham "vaqt bo'lmay qoldi".



Ha, aslida, "bosh og'rimay qolishi"ga sabab organizm moslashuvchanligidan ko'ra, ijtimoiy tarmoqlarning algoritmi tufayli sodir bo'ldi, desak to'g'ri. Chunki ijtimoiy tarmoqlar sizdan hech qanday mehnat talab qilmay, miyaga zavq bag'ishlash tamoyili asosida ishlaydi. Kitob o'qish uchun esa diqqatni jamlash, fikrlash zarur, odam tabiatan dangasa mavjudot, bu ikki tanlov orasida ongimiz osoniga ko'proq intilishi tayin. Shunday qilib menda ham borgan sari ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik kuchayib boraverdi. O'qishda ham, yo'lida ham — xullas, qayerda bo'lmay, qo'lim bo'shadi deguncha yana o'sha kulgili videolar, yana o'sha ko'ngilochar kontentlar...

Xo'sh, nimaga men kulgili videolarga bunchalik o'rganib qolganim? Birinchidan, kunimni rejasiz boshlashim menda bo'sh vaqtni ko'paytirardi, inson bo'sh o'tirgan payt esa miya asl holatiga, ya'ni tushkunlikka qaytadi hamda tabiiy ravishda ko'tarinkilik talab qiladi. Ikkinchidan, ishda yoki o'qishda

paytim ham nimadandir asabiylashsam, o'zimni chalg'itish uchun xayolimga tag'in shu "mashg'ulot" kelardi. Axir jahllanish yoki xafahol o'tirish kimga yoqadi? Xullas, qisqa kulgili videolar ko'rish men uchun qaysidir ma'noda "xalokkor"ga aylanib qoldi. Bora-bora esa bu qaramlik atrof-muhitga e'tiborimni ham susaytirib yubordi. Biror kishi bilan yuzma-yuz muloqot qilishdan ko'ra, "prikol" ko'rib o'tirish qiziqroq tuyulardi. Ayniqsa, oila davrasida bu illat ko'proq namoyon bo'laverdi. Qayergadir mehmondorchilikka borgananda esa bu qaramlikdan o'zim ham uyaliy ketardim. To'g'ri, bu muammoga duch kelmagandamda ayni "iqrorlar" mubolag'a bo'lib tuyulishi mumkin, biroq hammasi haqiqat.

Tasavvur qiling, atrofimizda xuddi shunday "dard"ga chalingan qancha yigit-qizlar topiladi?! Hozir ham kunda-kunora jamoat transportida, navbat kutish paytlarida quloqchin taqib, kulgili videolar ko'rib o'tirgan o'nlab yigit-qizga ko'zingiz tushadi. Eng achinarlisi, hazil videolarga mukkasidan

ketish yosh bolalar orasida ham ommalashib borayotir. Ya'qinda bir tanishim bilan subhatahlab qoldik. Aytishicha, 6 yoshli o'g'lim ham shunday muammo mavjud.

Ishonsangiz, farzandim ishdan qaytishimni intizorlik bilan kutib o'tirardi. Sog'inib ketganidan emas, aksincha, tezroq borsam, telefonimni qo'lmdan olsa, — deydi u. — Darhol o'zi kuzatadigan sahifalarga kirib, yangi video qo'yilmabdim, deb tekshirib chiqadi. Achinarlisi, o'sha videolardagi aktyorlarning barchkana gap-so'zlari borgan sari farzandimning ham nutqiga "yuqub" qolyapti. Turmush o'trog'im bilan bolani bu "qaramlik"dan qutqarishning turli yo'llarini sinab ko'ryapmiz, sababi uning bu odati bizlarni rostdan ham xavotirga solyapti.

Atrofga qararasak, katta-yu kichik orasida xuddi shunga o'xshash holatlarni juda ko'p uchratishimiz mumkin. Aslida, shularga sarflanayotgan, to'g'rirog'i sovrulayotgan vaqt o'rninga nimalar qilish mumkin edi? Audiokitoblar eshitish, til o'rganish mumkin emasmi? Men,

masalan, "prikol" ko'rishga sarflayotgan vaqtimni keskin qisqartirib, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan ishlab chiqilgan "Mutolaa" hamda "Ibrat" ilovalarini o'rnatib oldim.

To'g'ri, bu boshida ancha zerikarli tuyulishi aniq, ammo natijasini ko'ra boshlaganingiz sari qiziqish ham ortib boraveradi. Masalan, "Ibrat" ilovasi orqali biror tilni bemalol me'yor darajasida o'rganish mumkin — eng muhimi esa ilovadan foydalanish tekini.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikni kamaytirish turmush tarzimga, salomatligimga e'tibor qaratish imkonini berdi. Internetdagi ma'lumotlarga ko'ra, ovqatlanish paytida televizor ko'rish yoki telefonidan foydalanish miyada to'yish hissini kechiktirib, me'yordan oshiq taom yeb qo'yishga olib kelarkan. Bu — ortiqcha vazn, degani. Shu sababli ovqatlanish paytida video tomosha qilishni to'xtatdim. Ovqatdan so'ng darhol yotib, yana telefoniga "yopishmasdan", ochiq havoda piyoda yurishga odatlandim. Albatta, bular natija bermay qolmadi.

Endi taqqoslab ko'ring, oddiygina ko'rgan ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik turmush tarzimizning turli jabhalarga salbiy ta'sir ko'rsatyapti. Axir bizning kunlik vaqt taqsimotimiz 24 soatning chorakdan ko'proq qismini turfa "prikol" videolarga sarflashimizga mo'ljallanganmi? O'zi bunday "tomosha"larni muntazam ko'rish bizga kerakmi? Undan ko'ra, mahallaga chiqsak, tanishlarni uchratamiz. Xalqimiz hazil-mutoyibali, ikki o'zbek yig'ilgach esa qahqahasi mahallani tutadi.

Keling, dunyodagi eng qimmat narsa bo'lgan vaqtimizni qiymatsiz mashg'ulotlarga sarf qilmaylik, umrimizning har bir daqiqasini mazmunli o'tkazaylik. Virtual olamdan ortib, atrofimizga, jonli hayotga e'tibor beraylik. Jonli hayotdagi voqea-hodisalar virtual to'qimalardan yuz chandon qiziq va mazmunli. Hammasi qanday ko'z bilan qarashga bog'liq.

Jonibek ALIJONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Mulohaza

Uzoq bolalik yillarimizda gurunglar ko'proq televizordan eshitilgan yangiliklar ustida bo'lardi. Bu mo'jizakor quvidan taralgan axborot hal qiluvchi maqomga ega edi. Keragidan ortiq tantanavor ohangda ersa-da, har qalay, televizor yetkazgan axborot muhim va rost bo'lardi. Chunki u zamonning odamlari bugungi avlod singari bir uyum qumdek shubhali axborot orasidan oltin, ya'ni chin xabar axtarib vaqtni behuda sovurmasdi.



Turdimurod MUSTAFOYEV, publitsist

Eslyaman, o'sha davr bobolariga "oynakli o'choqtosh" bo'lib ko'ringan televizor donishmand keksa qiyofasida o'git berar, jonkuyar murabbiy bo'lib to'g'ri yo'l ko'rsatar, o'tyurak ziyoli shamoyilida muammolardan bong urar, xayolchan shoir suvratida ilhomboxsh she'rlar o'qir, xullas, har bir daqiqangizga hamroh bo'lardi. Umuman, elning maishiy turmushiga oid yuk "O'zbekiston" deb ataladigan yagona telekanal zimmasida edi.

Vaqt o'tishi bilan odamlarning maishiy turmush borasidagi vazifalarini taqsimlab olishga shay vorislar paydo bo'la boshladi. Qo'shiq eshitasizmi — qanaqasi ta'bingizga mas? Marhamat, ixtisoslashgan kanalga o'ting. Balki sportdan boshqa narsa sizni qiziqitmas? Muammo yo'q, murvatni "Sport" kanaliga burasangiz, kifoya. Shu tariqa respublikamizda yagona sanalagan telekanal keksaya boshlagan o'taxon kabi o'zi sidqidildan bajarib kelgan yumushlarini kuchga to'lgan, tashabbuskor, ammo bir oz tajribasiz o'g'lonlariga taqsimlab berdi. Biroq "o'g'illar" bu ishlarni qanchalik sifatli bajaromda? Ayniqsa, qadriyat va ma'naviylikke sifatlariga sadoqat saqlanarmikan? "Ota" yillar davomida begard asragan tabarruk mulkka putur yetmasmikan?

Tomoshabin uchun kurash

Yetti-sakkiz yilcha oldin lug'atimizda biz qachonlardir yaxshi tushungan, ammo xotira sandig'iga mahkam qamab tashlangan "erkin so'z", "so'z erkinligi", "fikr hurligi" kabi atamalar paydo bo'la boshladi. Xususan, "Ochiq muloqot" (to'g'ridan to'g'ri efriga uzatiluvchi suhbatlar), "Munosabat" (tok-show va munozaraviy shakldagi auditoriya berib boriladigan ko'rsatuvlar atrofidagi rulkariya geometrik progressiya asosida kengaya bordi. Hatto futbol fanatlariga taqidan bunday ko'rsatuvlarni jam bo'lib ko'radigan, ertasiga tomoq yirtar darajada bahsga kirishadigan toifalar paydo bo'ldi. Jamiyatning "yozarmon" qatlamiga xudo berdi. Jitimoiy tarmoqlar ommalashdi: bilan ham, bilangan ham xayoliga kelgan gapni yozib, "layk yig'ish" vasvasasiga tushdi. Bir qarashda, xalq yarim aslik qadrdoni — televizorni unutgandek edi. Turfa dizaynlarida chiqayotgan bo' mo'jizaviy buyumlar ma'naviyatide deg' am chekuvchi (g'am chekmoq ne — salkom qon yutadigan) millat oydinlarining sodiq musohibiga aylangan bo'lsa, "televizorga allaqachon ishonmay qo'yg'an" ayrim zamonoshlarimizning uyida bezak vazifasini bajarib qoldi.

Salkam bir asrdan beri axborot maydonida raqobatchilarini birin-kegin "sindirib", "chalajon qilib tashlagan" va pirovardida bu maydonida yakkaohim ko'lib turgan televideniye ham o'z o'rnini internetga osongina bo'shatib bermadi, albatta. Tomoshabin uchun astoydil kurashdi. Nomi odam e'tiborini tortuvchi telekanallardir, o'chiladi, yoshlarni ekran qarshisiga mixlab qo'yishga bel bog'lagan ko'rsatuvlar, loyihalari efriga uzatiladigan bo'ldi. Biroq hamma ham ta'bi tortgan oshni yeydi. Studiya to'rida o'tirib olib, odamlarga qanday yashashni o'rgatadigan "yulduz", hasharotni ushlab ko'rish bilangina g'oliblik shogusipaga chiqadigan "mitti yulduz", qit'amiz etasida tingincha tirikchilgini qilib yurgan hindistonlikni "xuddi o'ziday kopirovka" qilib berib, qarasklarga ko'miladigan "talant",

to'shakka qanday yaqinlashish "samaraliroq" ekanini uqitirishdan lazzat oladigan "mutaxassis" va shu kabi "zamonaviy televideniye" vakillarini tomosha qilib ensasi qotadigan, g'ashi keladigan yurtodoshlarimiz oz deysizmi?! Axborot tarqatish biznesining ustamonlari xalqni hayratdan "taxta qilib" tashlashning eng ishonchli, ehtimol, yagona usuli so'z erkinligi va fikr hurligi ekanini allaqachon bilib olgan. Taassufki, "harakat erkinligi" sari yetaklovchi so'z erkinligiga yopishib olish fenomeni ustuvorlikka urina boshladi. Falsafadagi "sodda substansiyalarning tez ko'tarilishi" (masalan, bitning boshga chiqishi) va fizikadagi "vazni yengil moddalarning yuqoriga intilishi" haqidagi qonuniyatga tayanadigan bo'lsak, so'z

bo'lgan taqdirda ham buning nimasi yomon? Bir zamonlar tanamni chumoli o'rmlaganday jimirlagan, syujetlari yod bo'lib ketgan xorijiy va milliy kinodurdonalarni ayni uyqu oldidan taqdim etsa, haligacha xirgoyi qilib yuradigan qadrdon ohanglarni ("Barhayot navolar", "Siz sog'ing'an qo'shiqlar" kabi dasturlar orqali) erta tongdan ifordek taratasa, uzzukun muammolarimga esh bo'lsa, ko'nglimda turgan, ammo aytishimga imkon topmagan so'zlarni "topib gapirsa" — yana nima talab qilishim zarur? Hatto shunday paytlar bo'ladiki, oilamdagilarga qaratib: "Men sizlarga nima degan edim!" deya xitob qilib yuboram.

To'g'ri, "Mahalla"ga ixlosim qisman bolalik sog'inchi bilan bog'liq, ammo ongli fuqaro ko'zni quvnatadigan bejirim idishlarda tortiladi. Sizingcha, dasturxonaga meva tortishning qaysi usuli qulayroq, boringki, yoqimliroq? Esdan chiqarmaylik: uzu-un dasturxonaga mevalarni sochib tashlash — qadriyat emas, mavjud muammolardan (masalan, likobchalar taqchilligi) chiqib ketish uchun qabul qilingan chora. Eng muhimi, o'sha mevani dasturxonaga tortib, mehmonning ko'nglini olish, ya'ni mehmondostlik — bu endi qadriyat. Bizning jamoamiz ham elga dasturlarni taqdim etishda xuddi shu fikrdan kelib chiqadi.



O'ZLIKNI TARBIYALASH UZLUKSIZ JARAYON

yoxud "Mahalla" tomoshabiniga nimalarni tortiq qilyapti?

erkinligi deganlari shunaqa yengilmikan, degan o'nga ham borasan kishi... Darvoqe, chindan ham tarmoqlar-u telekanallarni birin-kegin zabt etayotgan so'z erkinligining aniq namoyon bo'luvchi shakli-u shamoyili bormikan?

So'z erkinligining millati bo'ladimi?

Bir zamonlar mashhur shoirimiz Abdulla Oripovning "Dunyoda kulfatning millati bo'lmas, millati bo'lmagay saodatning ham", degan satrlari bilan xayolan bahslashib yurardim. Nega axir? O'zbek, o'zbekistonlikning uyiga baxt va halovat olib kiradigan voqe'liklar, misol uchun, amerikalik uchun arimas gap bo'lishi mumkin-ku? Mayli, sizni munozaraga chorlamoqchi emasman: boring ana, kulfatning ham, saodatning ham millati yo'q bo'la qolsin, ammo so'z erkinligining, fikr hurligining millati bor, aniq bor! Jitimoiy tarmoqlardan o'ttirgan bir do'stim bor, o'zini erkin so'zning ashaddiy tag'ibotchisi hisoblaydi va sababsiz g'ingishlar, manzilsiz haqoratlar, ba'zan esa shubhali suratlarni sahifasiga joylab, "fayzibog'" ahldan "layk" umidvor bo'lib o'tiradi. U so'z erkinligi, deganda noo'rin gap aytib qo'yg'an mutasaddini bo'ralab haqorat qilishni tushunadi. Bozordan kartoshkani odatdagidan 500 so'm qimmatroqqa sotib olsa, "narx osmanga chiqib ketdi", deya ayyuhanos solish bilan "konstitutsiyaviy erkinligimdan foydalanayman", deb o'ylaydi. Erkinlik deganlari ham shunchalar yengil bo'ladimi? Otasiga "Mening hayotimga aralashmang", degan farzand, eriga "Men ham mustaqil shaxsman, o'z holimga qo'ying", degan xotin, el tanigan rahbarlarni bir og'iz so'zidan "ushlab olib" masxara qiladigan "bloger" — shular hammasi erkin fuqarolarni? Shunday paytlarda jitimoiy tarmoqlarda qayddan o'tganimdan afslanib, chinakam so'zga, hur fikrga va pozitiv axborotga tashaligimni boshqa joydan qondirish maqsadida televizor pultini qo'lga olaman. "O'ynay jahonlik" maqomini allaqachon kompyuter atalmish matohga bo'shatib bergan bu jihat mening chinakam musohibim. Ayniqsa, "Mahalla" telekanalini huzur bilan tomosha qilaman.

ekanim, faol umrimning aksarini jurnalistikaga bag'ishlaganim ham muhim omil. Hayotda biz e'tibor qilmaydigan qonuniyat bor: har bir yaratiq jitimoiy zarurat hosilasidir. Deylik, nega "Mahalla" teleradiokanalni aynan 2015-yilda tashkil etildi? Yoinki nima uchun aynan shu nom tanlandi? Bu savollarning andazaviy bir javobi bor: ya'ni Yevropaya Rossiyani o'z komiga butkul tortib ulgurgan "o'rgimchak" O'zbekistonga ham o'z to'rlarini yoyayotgan davr edi. Jamiyatga shiddat bilan kirib kelayotgan erkin so'zning biz uchun yet maqsadlarga xizmat qilish xavfi paydo bo'lgandi. Yurt rahamlari "erkinlikning, hurlikning, boringki, demokratiyaning ham millati bo'lishi muqarrarligini" bir lahza bo'lsin unutmag'an.

Aytmoqchi ediki, "Mahalla" telekanali dasturlari jamiyatimizdagi ustuvor qarashlar, jamoatchilik fikri, barqaror qadriyatlarga tayanilgan holda tuziladi, hech narsa zo'raki o'ylab topilmaydi va zamonaviy yondashuv asosida taqdim etiladi. Men "Minbar" dasturini tomosha qilar ekanman, fikr erkinligining milliy shaklini va Ikrom Choriyev tilga olgan yangicha yondashuvni ko'rganday bo'laman. Hozir shaxs munosabati va erkin fikri asosiga qurilgan ko'rsatuv tomoshabin jalb qilishning eng ishonchli usuli, binobarin, mamlakatimizdagi barcha telekanallar turli yorliqlar ostida bunday ko'rsatuvlarni efriga uzatib borishni xanda qilmaydi. Shunisi ham borki, har kim har xil maqsadda ko'radi bu xildagi dasturlarni: birov uchun ko'tarilgan muammo



bo'lardi. Biroq har qanday taqiqning yumshashi, boringki, zaiflashishi muqarrar: el ichida "taqiqlangan mevadan totinib" huzur qiladigan va qavm hamisha topiladi. Tarmoqlar, g'arb kinalari, xorijiy matbuot nashrlari orqali shamolday kirib kelayotgan g'arbo'na axloq, "ommaviy madaniyat" namunalarni muvozanatlash zarurati paydo bo'lgan edi. "Uyimizga kirib kelayotgan shamolning oldini to'sa olmaymiz, ammo oila a'zolalarini uning ta'siridan himoya qilish yo'lini topishimiz shart", degan mazmunda hikmat bor. Jamiyatda dominantlik vazifasini bajarishi ko'zda tutilgan erkin so'z, hur fikr (boringki, demokratiyani) ham milliyilashtrish, "bir oz vazminlashtirish" masalasini xalqning axborotga bo'lgan ehtiyojiga putur yetkazmasdan hal etish lozim edi.

Jurnalistika — tiniq ko'zgu

Bundan uch yilcha oldin o'zim ishlaydigan gazeta topshirig'i bilan "Mahalla" teleradiokanalni direktori Ikrom Choriyev bilan qisqa muddatli musohaba o'tkazgan edik. O'sha suhbatda men: "Qadriyatlar o'zgarmasa, agar o'zgarasa, mohiyatini yo'qotadi. Shunday ekan, teleradiokanal faoliyatini tubdan yaxshilash bajarilishi imkonsiz yumushga o'xshab tuyulmayaptimi?" deb so'ragan edim. Direktorning gaplari deyarli so'zma-so'z yodimda. Ikrom Choriyev aytgandiki, "avvallari to'y-hashamlarda, mavrid-marakalarda meva-chevani dasturxonaga betartib sochib tashlash odati bo'lar edi. Endi esa chiroyli,

muhim bo'lsa, yana birovga "boshlovchi savoliga javob topa olmay qolgan" mutasaddi rahbarlarning holati qiziq. Meni esa savollar ketma-keligi va qo'yilgan muammo yodindilashtrilish borilish tarziga e'tibor beraman. Oddiy tomoshabinlar farqli ravishda bilamanki, telekanal jamiyatdagi muammo hal etiladigan dargoh emas: shaxsga minbar taqdim etuvchi ko'rsatuvlar faqat muammoga jamoatchilik e'tiborini qaratadi, bong uradi. Soddaroq aytarsak, jurnalistika — kirosvon emas, tiniq ko'zgu. Jamiyat esa xuddi inson organizmi kabi o'zini o'zi "davolab borish" xususiyatiga ega. "Minbar" dasturida milliy kino san'ati bilan bog'liq jiddiy masalalar ko'tarilganda, "tez tibbiy yordam" sohasidagi xaltalab muammolar tilga olinganda, o'zbek to'ylaridagi dabdababozlik-larning tub sabablari tahlil etilganda, qarindoshlar o'rtasidagi nikohning oqibatlari yuzda keskin mulohazalar yuritilganda hech kim boshqa kanalga o'tib ketmasligiga ishonaman, shu bilan birga, erkin so'zning chinakam qudratini his qilaman. "Minbar"ni tomosha qilarkanman, odamlarga muammo ko'rsatib berish emas, uning dolzarbligini qablarga singdirish qanday bajarilishini, shu barobarida milliylik sarhadidan chiqmagan holda haq so'zni aytish sirlarini o'rganday bo'laman. Agar "Minbar", "Inson aziz", "Jurnalist nigohida" ko'rsatuvlarini hamma ham menday "yutoqib" ko'rsa, jamiyat "o'z tanasidagi dardlar"dan tezroq xalos bo'lgan bo'lardi.

"O'talar so'zi..." dan ayirmasin

Bolalik va o'smirlilik yillarim bilan baqanti kelayotgan yana bir ko'rsatuv borki, uni sevib tomosha qilmaydigan o'zbek bo'lmas kerak! Hech qanaqangi serial yo'q tarmoqdagi shovshuvi videolavha "O'talar so'zi" — aqlning ko'zi"dan yulib ololmaydi bizni. Biz uni qisqagina qilib "O'talar so'zi..." derdik, negaki, "aqlning ko'zi" tafsifini ilova qilishga hojat bo'lmasdi. Hali maktabda o'qib yurgan mahalim Orif ota Alimxumov bilan gurgulashib o'tirganday tomosha qilardik. Ba'zan ajablanaman: bundan qirq yillar burun "O'talar so'zi"ga muhtoj bo'lgan muammolar bugun ham qisman mavjud. Qadriyat kabi jamiyat "dardi" ham o'zgarmasa voqe'likmikan? Xuddi tok-shoular singari videonovella janrida olinadigan hayotiy kechmishlar nihoyatda tomoshabob. Xuddi shu sababga ko'ra, "O'talar so'zi"ning maqsadlari, "shakldoshlari" bor. Lekin bolaligimga esh bo'lgani uchunmi yoki unda "Mahalla" va o'zbeklik ruhi ufurib turgani uchunmi, ekrandan nari ketolmay qolaman. Bir safar o'zimizni ziyoli va "Mahalla" telekanali jonkuyar muxlisi hisoblaydigan bir necha kishi direktorga xat yozmoqchi bo'ldik. Mazmun shuki, "O'talar so'zi..." ko'rsatuvining nomi o'zgartirilsa... Xatning matnini yakunlash asosida yuragim hilvirab ketganini sezdim. Go'yo kap-katta odam bo'lib, elga qo'shilgan bolaning nomi o'zgartirish haqida gap ketayotganday... Xatni kompyuterdan o'chirib tashladik. Biz uchun hech qanday o'g'it "O'talar so'zi..."dek ta'sirchan va qadrdon bo'lolmaydi. "O'talar so'zi..."dan ayirmasin.

"Besh"ni tashlab qo'ying..."

Odami o'zi noyob haqiqatni kashf etganda, ya'ni o'ziga o'zi qoyil qolganda hissiyot zohir qiladi, o'ziga maqbul fikr (deylik, televizor orqali) eshitganda esa yonidagiga qarshilab "besh" tashlab qo'yadi. Yozuv ilimga yaxshi xalqni bor va shu bois, mashhur insonlar haqidagi lavhalarni suyib tomosha qilaman, topib aytilgan mohirona so'zning qadriga yetaman. Telekanaldagi hujjatli, publitsistik film ko'rsatuvlardan buyuklik sirlarini axtaraman. Ko'p yillik telejurnalist Ro'ziboy Qo'ldoshevning "Inson aziz" turkumidagi ko'rsatuvlarida yaqin tariximiz va bugunimiz qahramonlarining biz bilimgan portreti mahorat bilan gavdalantiriladi. Shoir va jurnalist Sirojiddin Ibrohim muallifligidagi film ko'rsatuvlardan buyuklik sirlarini axtaraman. Ko'rsatuvda qahramonlar aytib yuborgan hikmatlar, hayot haqiqatlarini mavridi kelgan joyda o'rinni ishlataman. To'g'rida, boshqa birovlariga xizmat qilmasa, ular o'lik mulk"ka aylaniq qoladi-ku... Darvoqe, bunday paytlarda ko'pam xijil bo'lmayman: bir tomoqralik suv tortsak, azim daryoning shiddatiga putur yetmaydi. Sarlavhalari saxiy dasturxon egasidek

noz-ne'matga manzirat qilib turadi: "Ohanglar naqqoshi", "So'z aytgani keldi dunyoga" "Iymon asiri", "Men bulbulman, chamanimdan ayirma", "Millat murabbiyi", "Yurak bilan odimlab", "Tiniqso'z", "Yusuf Roziqov Toshkentda", "Ko'rinnay gulladim..." kabi film-ko'rsatuvlarim hatto necha daqiqa davom etishini ham sezmay qolaman. O'ylayman, barchamiz lug'atimizdagi mavjud hamma harflarni talaffuz eta olamiz: nega kimdir atigi 34 ta tovushdan asrlarga bo'ylashgudek so'zlar yaratadi va aksar ko'pchilik bu ne'matni kundalik ehtiyoj so'zlariga ishlatib yuboradi? Menga o'xshab ijodga mehr qo'lgan, ammo nedir sabab bilan o'zini to'liq namoyon eta olmaydigan jur'atsiz va kamsuqun yurtodoshlarimiz Rauf Parfi, Mashrab Boboyev, Mustafo Bayofev, Yusuf Roziqov, Qulman Ochil kabi darg'alarning o'zlikni axtarish usullaridan ulg'i oladi, hoynahoy.

Buyuklik va oddiylik uyg'unligi

Bir safar zalvarligina maqola yozish asnosida ancha tanikli bir adibni yengil chandib o'tganimda, ustozimiz Isroil Shomirov akalarcha dashmon bergan edi: "Kimdiring sifatini keltirish uchun boshqa birovni kamsitish shartmi?" Men aytgandimki, oqni tasvirlash uchun uni qo'ng'iroq obyektning yoniga qo'yish kerak, aka, axir, qiyoslash degan usullar bor. Ana shu "qiyoschilikka" moyil usulim hozir ham saqatib qoldi. Ancha yillar oldin tomoshabob ko'rsatuvlarni ham nihoyatda rasmiiy libos va undan-da rasmiiyrog' ohang bilan olib boradigan suxandonlar bilan ekranda yuzmayuz kelsak ham ensamiz qotardi: sal jo'nroq ki-yinsa, erkinroq gapirsa bo'lmasmikan-a? Xuddi istagimizdagi yondashuvni Tolibjon Isroilovning "Xushvaqt" teleoyihisida ko'r'dik. Undagi jonli nutq, erkin munosabat, loyiha ruhiga mos libos hali ko'rsatuv qahramoni ekranda paydo bo'lmay turibog' kishini televizor yoniga mixlab qo'yadi. Elga mashhur xonandalar, shoiralar, aktyorlar, sozandalar ham o'zimizdek odam ekanini, ular ham shu davmning yutuqlaridan suyunib, muammolardan kuyinib yashayotganini hech qaysi dastur "Xushvaqt"chalik yetkazib bera olmasa kerak, degan xayolga borasan kishi. Men "Xushvaqt" teleoyihisi suratga olinadigan studiyani "Buyuklik va oddiylik uyg'unlashadigan joy" deb ta'riflagan bo'lardim. Bu fikrni "Mahalla" telekanaliga yaxlit tarzda qo'lasak ham noto'g'ri bo'lmaydi.

Har bir odamning o'z o'z muammosi bor, degan taskinbaxsh qoidaga o'rganib qolganmiz. Shunisi ham borki, har bitta mahallaning o'z muammosi bor. Fazilatlar yig'indisi yagona ulkan fazilat bo'la olmagani kabi barcha muammolari bir qogga joylab, biqiniga yagona yorliq yopishtirishning imkoni yo'q (har bir odamning kulgisi ham, yig'isi ham turlicha bo'lgani kabi). Har bir odam o'z muammosini tili tarzda aytadi: kimdir istehzoli kulib, kimdir qahrli so'kish bilan, yana birov oddiygina arznama tariqasida. "Mahalla" telekanali shu jihati bilan ham alohida bir juxalst muammosiga hamdarddir. "Minbar" va "Jurnalist nigohida" dasturlarida jiddiy ohang bilan ta'kidlangan muammo biz "Televizion miniatyura", "Shapaloq", "Qalampir", "Shakarxanda", "Ha-ha-ha" kabi qunvoq hayviy dasturlarda ham his etamiz.

Umumiy tarzda, "Mahalla" telekanali dasturlarini to'kin dasturxonaga o'xshatish mumkin: inson tanovuli uchun zarur barcha ne'mat jamlangan va ular chiroyli, bejirim idishlarda tortilgan. E'tibor berganmisiz: yana uch-to'rt likobcha uchun har qanday dasturxonada har doim joy topiladi. Insonlar o'rtasidagi muosabatlarni bor holicha ko'rsatib berishni, salbiy voqe'liklarni yaqqol namoyon etishni maqsad qilgan kichik hajmli satirik ko'rsatuvlar rejali berib borilsa, "Mahalla" dasturxonasi bundan ham farovonroq bo'lgan bo'lar edi.

O'zbekiston minglab mahallalarni o'z ichiga olgan muazzam maskandir. O'sha minglab mahallalarda yashovchi soddalidi, tanti, to'g'riso'z insonlar har bir shavqunvor ko'nggida televizor ekraniga boqqan ko'yi yagona "Mahalla" atrofida birlashadi. Loalq bir necha soat butun azim mamlakat ahli umumiy muammolar va umumiy maqsad haqida o'ylaydi. Bunga ishonchim komil.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM Bosh muharrir: Salim DONIYOROV MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "Kolopak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 3182. 41369 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov Musahih: Malohat Mingboeva Dizayner: Zakar Ro'ziyev Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy O'zA yakuni — 0056 Topshirildi — 0145